FVV
Vaziyat

XAVF-XATAR MAYDONIDA QALQONMIZ XALQ YONIDA

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

2026-YIL 29-OKTYABR № 44 (1089)



HAR BIR IXTIRO INSON MUHOFAZASI UCHUN

TABIIY XAVFLARDAN OGOHLANTIRISH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI BMT TARAQQIYOT DASTURI BILAN HAMKORLIKDA XALQARO OFATLAR XAVFINI KAMAYTIRISH KUNIGA BAG‘ISHLANGAN QATOR TADBIRLARNI O‘TKAZDI. TADBIRLAR DOIRASIDA JURNALISTLAR UCHUN KOMPLEKS ERTA OGOHLANTIRISH TIZIMINING ASOSIY OBYEKTLARIGA PRESS-TUR HAMDA TOSHKENT VILOYATINING “KUMUSHKON” MAHALLASI AHOLISI ISHTIROKIDA TAKTIK O‘QUV MASHG‘ULOTI TASHKIL ETILDI.







Ushbu tadbirlardan ko‘zlangan maqsad – jamoatchilikning erta ogohlantirish tizimi faoliyati haqidagi xabardorligini oshirish va aholi orasida tabiiy ofatlarga tayyor turish madaniyatini rivojlantirish.

Iqlim o‘zgarishi tabiiy xavflarning xususiyati va kuchayishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Haroratning ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik rejimining o‘zgarishi, muzliklarning erishi va boshqa iqlimiy jarayonlar sel, toshqin, gidrologik qurg‘oqchilik va ko‘chki kabi xavfli hodisalarning yuzaga kelish ehtimolini oshirishi yoki ularning oqibatlarini kuchaytirishi mumkin.

– Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek, tabiiy ofatlar oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy zararni kamaytirish maqsadida O‘zbekistonda Kompleks erta ogohlantirish tizimi takomillashtirilmoqda. Bu jarayon xavfli hodisalarni monitoring qilish va prognozlashning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, ogohlantirish tarmoqlarini takomillashtirish hamda aholini favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor harakat qilishga tayyorlashni qamrab oladi, – deya ta’kidladi mayor Behzod Hamroyev.

FAVQULODDA VAZIYATLARNI BOSHQARISH MILLIY MARKAZI: MA’LUMOTLAR TAHLILIDAN QAROR QABUL QILISHGACHA

Tizimning samarali ishlashi vazirlik va idoralar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslanadi. Gidrometeorologik, seysmologik va boshqa ma’lumotlarni yig‘ish hamda baholash tegishli vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Olingan ma’lumotlar muntazam ravishda Favqulodda vaziyatlar vazirligiga taqdim etiladi. Favqulodda vaziyatlarni boshqarish milliy markaz kelib tushgan axborotni qabul va tahlil qilish, xavf ko‘lamini baholash, tegishli takliflarni ishlab chiqish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, shuningdek, ma’lumotlarni hududiy bo‘linmalar va aholiga yetkazishni ta’minlaydi. Tizimni modernizatsiya qilish natijasida geoinformatsion texnologiyalar (GIS) asoslangan platforma joriy etildi. U turli manbalardan olingan ma’lumotlarni yagona tizimda to‘plash va tahlil qilish, ularni raqamli xaritalarda aks ettirish hamda xavfli vaziyatlar qanday rivojlanishi mumkinligini modellashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, xavfli tabiiy hodisalarni kuzatish va prognozlarni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan O‘zgidrometning gidrometeorologik infratuzilmasi ham mustahkamlanmoqda. Bundan tashqari, qor ko‘chkilari, sel, yer ko‘chishi va gidrologik qurg‘oqchilik xavfini baholashga mo‘ljallangan ko‘p modulli platforma ishlab chiqilmoqda. Ushbu platforma Favqulodda vaziyatlar vazirligining GIS-platformasi imkoniyatlarini kengaytirish, tabiiy xavflarni baholash va aholini erta ogohlantirish bo‘yicha milliy salohiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Favqulodda xabarlarni har bir kishiga yetkazish maqsadida SMS orqali ogohlantirish, radio, televideniye, sirenalar va odamlar gavjum joylardagi tashqi axborot ekranlari bilan bir qatorda aholini xabardor qilishning qo‘shimcha usullari joriy etilmoqda. Xususan, aholi punktlari yaqinida joylashgan masjidlarga FVVning favqulodda xabarlarini tashqi karnaylar orqali uzatish imkonini beruvchi maxsus qurilmalar o‘rnatilmoqda. Bu xavflar haqidagi axborotni aholiga tezkor yetkazishga yordam beradi. Hozirgi kunda bunday qurilmalar O‘zbekistonning yetti hududidagi 272 ta masjidga o‘rnatilgan.

AHOLINI TAYYORLASH – ERTA OGOHLANTIRISH TIZIMINING MUHIM TARKIBIY QISMI

Tabiiy ofatlar xavfi mavjud mahallalarda aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va ko‘ngillilar guruhlarini shakllantirish samarali erta ogohlantirish tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. 2026-yilda O‘zbekistonning yettita pilot mahallasida faol ayollar ishtirokidagi ko‘ngillilar guruhlarini shakllantirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Ko‘ngillilar birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarida qatnashib, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish va to‘g‘ri harakatlanish bo‘yicha amaliy bilim hamda ko‘nikmalarini mustahkamlab bormoqda.


– Ayollar, odatda, o‘z hududining o‘ziga xos xususiyatlarini, atrof-muhitni yaxshi biladilar, mahalla hayotida ham faol ishtirok etadilar. Ayollarning ofatlar xavfini kamaytirishdagi ishtiroki mahalliy hamjamiyatlarning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini oshirishga hamda bolalar, homilador ayollar, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ham qamrab olgan holda, barcha aholining ehtiyojlarini hisobga olib yordam ko‘rsatishni tashkil etishga xizmat qiladi, – deya qo‘shimcha qildi BMTTDning O‘zbekistondagi doimiy vakili Akiko Fujii xonim.

Toshkent viloyatidagi “Kumushkon” mahallasi faol ayollar ishtirokida ko‘ngillilar guruhlari shakllantirilayotgan yettita mahalladan biridir. Xalqaro ofatlar xavfini kamaytirish kuniga bag‘ishlangan tadbirlar doirasida ushbu mahallada taktik mashg‘ulot o‘tkazildi. Mashg‘ulot davomida ishtirokchilar aholini ogohlantirish va evakuatsiya qilish, favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish hamda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini mustahkamladilar.

Mashg‘ulotda ko‘ngillilar bilan bir qatorda Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari, qidiruv-qutqaruv otryadi vakillari, tibbiyot xodimlari, veterinariya xizmati mutaxassislari hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etuvchi boshqa xizmatlar vakillari ham qatnashdi. Kompleks erta ogohlantirish tizimini takomillashtirish Yashil iqlim jamg‘armasining moliyaviy ko‘magida FVV, BMTTD va O‘zgidromet qo‘shma loyihasi doirasida amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda turli favqulodda vaziyatlardan aholini erta ogohlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar davom etmoqda. Bu kabi tadbirlar nafaqat aholi muhofazasi uchun, balki turli falokatlarni talafotsiz yengishga ham xizmat qilishi shubhasiz.

FVV Axborot xizmati



BUGUNGI KUNDA MAMLAKATIMIZDA SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH, SUDYALAR MUSTAQILLIGINI MUSTAHKAMLASH, ODIL SUDLOV SIFATINI OSHIRISH VA INSON HUQUQLARINI ISHONCHLI HIMOYA QILISHGA QARATILGAN KENG KO‘LAMLI ISLOHOTLAR AMALGA OSHIRILMOQDA.

O‘ZBEKISTON AYOL SUDYALAR ASSOTSIATSIYASINING XALQARO HAMKORLIGI:

E’TIROF, IMKONIYAT VA MAS’ULIYAT

Mazkur jarayonda sudyalarning, xususan, sudya ayollarning professional salohiyatini yuksaltirish, ularning xalqaro hamkorligini kengaytirish va ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Ayol sudyalar assotsiatsiyasi a’zolarining xalqaro professional tashkilotlarga a’zo bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Bu nafaqat muayyan sudyalarning shaxsiy kasbiy yutug‘i, balki mamlakatimiz sudya ayollarining professional salohiyati, nufuzi va xalqaro hamjamiyatdagi faolligining munosib e’tirofidir.

Xalqaro professional tashkilotlar va tarmoqlarga a’zo bo‘lish, avvalo, sudyalar uchun tajriba almashish, zamonaviy sud-huquq amaliyoti bilan tanishish, xalqaro standartlarni o‘rganish va ilg‘or yondashuvlarni milliy sud amaliyotiga tatbiq etish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ayniqsa, turli davlatlar sud tizimi vakillari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish, sudyalar faoliyatiga oid zamonaviy yondashuvlarni muhokama qilish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni boyitish bugungi globallashuv sharoitida juda muhim.

Bunday hamkorlik sudyalarning nafaqat professional, balki shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Eng muhimi, xalqaro tajriba milliy amaliyot bilan uyg‘unlashtirilib, mamlakatimiz sud tizimini yanada takomillashtirishga yo‘naltiriladi.

O‘zbekiston Ayol sudyalar assotsiatsiyasi faoliyatiga xalqaro tashkilotlar tomonidan bildirilayotgan ijobiy munosabat va e’tirof alohida ahamiyatga ega. Jumladan, BMTning O‘zbekistondagi doimiy koordinatori nomidan bildirilgan e’tirofda O‘zbekiston sudya ayollarining xalqaro hamjamiyatdagi nufuzi, kasbiy salohiyati va faolligi alohida ta’kidlangani quvonarli holdir.



Shuningdek, sudyalarning xalqaro professional tarmoqlarga qo‘shilishi tajriba almashish, kasbiy muloqotni rivojlantirish va odil sudlov sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim imkoniyat sifatida baholanmoqda. Bunday e’tiroflar, bir tomondan, O‘zbekiston sudya ayollarining xalqaro maydondagi nufuzi ortib borayotganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, ular oldiga yangi vazifa va mas’uliyat qo‘yadi.

Xalqaro tashkilotlar doirasida ishtirok etish faqatgina yangi bilim va tajriba orttirish imkoniyati emas. Bu, ayni paytda, mamlakatimiz sud tizimi, unda amalga oshirilayotgan islohotlar va sudyalarning kasbiy salohiyatini xalqaro hamjamiyatga munosib namoyon etishni ham anglatadi.

Shu ma’noda, har bir xalqaro tadbir, konferensiya, forum yoki professional muloqot O‘zbekiston sud tizimining ochiqligi, zamonaviyligi va xalqaro standartlarga intilishini namoyon etish uchun muhim maydon bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro hamkorlik jarayonida orttirilgan tajribani milliy amaliyotga tatbiq etish esa bu jarayonning eng muhim natijalaridan biridir. Sudya ayollarning xalqaro professional tashkilotlardagi ishtiroki gender tenglik masalasi bilan ham uzviy bog‘liq.

Bugungi kunda gender tenglik faqat xotin-qizlar uchun teng imkoniyatlar yaratish bilan cheklanmaydi. U jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, sud hokimiyatida ham professional salohiyat va qobiliyatdan samarali foydalanishni nazarda tutadi.

Sudya ayollarning kasbiy rivojlanishi, ularning rahbarlik va professional tarmoqlardagi ishtiroki sud tizimida inklyuzivlik va teng imkoniyatlar tamoyillarini mustahkamlaydi.

Eng muhimi, turli hayotiy tajriba va professional qarashlarga ega sudyalarning faol ishtiroki odil sudlovni yanada takomillashtirish, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Ayol sudyalar assotsiatsiyasining xalqaro hamkorligi uning faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim zamin yaratmoqda. Assotsiatsiya bugun nafaqat sudya ayollarni birlashtiruvchi professional tuzilma, balki xalqaro tajriba va milliy sud amaliyoti o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajarishi mumkin bo‘lgan platforma sifatida shakllanib bormoqda.

Bunday platforma orqali sudya ayollar o‘zaro tajriba almashishi, xalqaro ekspertlar bilan muloqot qilishi, zamonaviy sud-huquq amaliyotidagi tendensiyalar bilan tanishishi va o‘zlarining ilg‘or tajribalarini xalqaro maydonda namoyish etishi mumkin. Bu esa nafaqat Assotsiatsiya a’zolarining, balki umuman mamlakatimiz sud tizimining xalqaro professional hamjamiyat bilan aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalqaro a’zolikni yakuniy natija sifatida emas, balki yangi imkoniyat va mas’uliyatlarning boshlanishi sifatida qabul qilish muhim. Xalqaro hamjamiyat tomonidan bildirilayotgan ishonch va e’tirof O‘zbekiston sudya ayollari uchun katta sharaf bo‘lishi bilan birga yanada faol ishlash, bilim va tajribani oshirish, milliy sud amaliyotini rivojlantirish uchun kuchli rag‘batdir.

Bugungi globallashuv davrida sud tizimlari o‘rtasidagi professional muloqot tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois sudya ayollarning xalqaro maydondagi faol ishtiroki mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarini xalqaro hamjamiyatga tanitish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va uni milliy amaliyotga joriy etish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Eng muhimi, bu jarayon sudyalarning professional salohiyatini oshirish, xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash, gender tenglik tamoyillarini izchil rivojlantirish hamda odil sudlov sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, O‘zbekiston Ayol sudyalar assotsiatsiyasining xalqaro hamkorligi bugungi yutuqlarni namoyon etish bilan birga kelajakdagi yangi marralar uchun mustahkam poydevordir.

Nilufar ABDULXAYEVA,
Farg‘ona tumanlararo
ma’muriy sudining sudyasi



ODAM EL BILAN TIRIK

(Davlat manfaatlariga sadoqatli bo‘lish, halol va adolatli yashash – asl fuqaroning burchidir.)

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarining birida shunday degan edi:

– Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadrini ulug‘lashni eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etdik. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham O‘zbekiston huquqiy davlat ekanligini muhrlab qo‘ydik. Yagona maqsadimiz – adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash orqali xalqimizni rozi qilish.

O‘zbekiston Qahramoni, mohir adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov bilan bo‘lgan suhbatlardan birida ustozimiz ayni paytda yurtimizda kechayotgan o‘zgarish va yangilanishlarga baho berib, shunday degan edilar:

– Men Prezidentimizni nima uchun hurmat qilaman – Shavkat Miromonovich yuksak vazifaga kirishganidan boshlab o‘z lavozimini kabinetdan xalq orasiga olib kirdi. Uzoq qishloqlarga, ta’lim auditoriyalariga, qo‘shni davlatlar qalbiga kirib bordi bu inson. Davlatimiz rahbari dastlabki yillarda so‘zlagan nutqida barcha rahbarlarga bitta chaqiriq bilan chiqdi – “Xalqni rozi qilaylik!”. Bu chaqiriq vaqt o‘tishi bilan g‘oyaga, g‘oyalar esa falsafaga aylanib ketdi. Mamlakatimizda kechayotgan ichki siyosatning asosiy falsafasiga aylandi. O‘sha ilk ma’ruzadayoq Prezidentimizning shijoatiga, jasoratiga, mana shu sodda, lekin o‘ta hayotiy falsafasiga qoyil qolganman. Har bir jabhada bo‘layotgan o‘zgarishlar va yangilanishlarga nazar soling, barcha ishlarning mazmun-mohiyatida xalqni rozi qilish g‘oyasi yotadi. Shavkat Mirziyoyev nima uchun yangi O‘zbekiston tushunchasini, yuksak orzularni, maqsadlarni bizning qalbimizga, ong-u shuurimizga olib kirdi? Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi bobolarimizdek bunyodkor, tashabbuskor, ilmparvar yangi avlodlar tarbiyalanishini, kamol topishini istayapti. Ajdodlarimiz qanchadan-qancha tarix qatlamlarini, til qatlamlarini, ilm-fan kashfiyotlarini yaratib ketishgan. Davlatimiz rahbari bejiz har bir sohaga innovatsion usullarda yondashaylik, deya bong urmayapti. Jadid bobolarimiz yo‘lini tutib, har bir sohaga yangicha qarashni o‘rganaylik, deganida ham hikmat bor. Agar biz yangicha yashashga, fikrlashga o‘rganmasak, bugungi avlod oldida uyalib qolishimiz, hatto ulardan begonalashib ayrilib qolishimiz mumkin.

Ha, davlatimiz rahbari ilk qadamlaridanoq shijoat kamarini mahkam bog‘lab, o‘z ishlarida “Odamlarni rozi qilish” degan oddiy va samimiy mezonni baland ko‘tardi. Adolat va halollik bilan qilingan har bir ish, tashlangan har bir qadam mas’uliyati va natijasi qanchalar ardoqli ekanini isbotladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning davlatni boshqarishdagi uslubi, salohiyati hamda adolat prinsiplari aynan buyuk ajdodlarimizga xos uyg‘unligini, mushtarakligini ko‘rishimiz mumkin.

Atrofimizga bir nazar tashlaylik: dunyo maydonida vasvasali qirg‘inlar kechmoqda, birovlarning yerlarini yangi niqoblar ostida tortib olishmoqda. Kun ora vahimali o‘yinlar o‘ynalmoqda. Go‘daklar bir soniyada daydi o‘qlar qurboniga aylangan onaizorlari bag‘rida yetim bo‘lib qolishmoqda. Go‘zal hayot, muhabbat haqida xayol surishi mumkin bo‘lgan o‘smirlar o‘z jonini asrab qolish uchun ne-ne shartnomalarga ko‘zlarida yosh bilan imzo qo‘yishmoqda. Mana shunday dunyoda davlatimiz rahbari yetimlarning boshini silayman, yurtimizni ma’naviyat suyanchig‘iga aylantiraman, deya bor qalb quvvati, shijoati bilan harakat qilayotgani, ortidan butun bir xalqni ergashtirayotgani, ulkan tashabbuslar sari qo‘rqmay qadam tashlayotgani qanday ulug‘vor ish!

Bu niyatlar hech qanday mubolag‘a emas, real maqsadlardir. Chunki 42 sentnerdan paxta yetishtirayotgan odamlarning azm-u shijoatini, mehnatini qanday qilib quruq gapga yo‘ya olasiz? Faqat bu ezgu ishlarning barchasini yuksak darajadagi tashkilotchilik, tashabbuskorlik bilan yo‘lga qo‘yish zarur bo‘ladi. Xotin-qizlarning har tomonlama himoyasini kuchaytirish, gender tenglikka amal qilish, bolalarni majburiy mehnatdan ozod qilish kabi necha yillardan beri kutilgan amaliy ishlar natijasini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib, guvoh bo‘lib turibmiz-ku!

“Odam el bilan tirik, deya bejiz ta’kidlashmagan. Kimki el-yurt uchun jon kuydirsa, o‘z manfaatidan o‘z eldoshlari manfaatini ustun qo‘ysagina asl izzat va sharaf neligini anglab yetadi.

Avlod tarbiyasi haqida gap ketganida esa bu muhim masala har birimizni jiddiy o‘ylantirishi, tashvishga solishi keraklini ta’kidlaydi. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgarayotgani, bu o‘zgarishlarni esa hammadan ham ko‘ra ko‘proq yoshlar his etishi, o‘z yuragidan o‘tkazishi zarurligi, yosh o‘g‘il qizlarning tilaklari ayni zamon talablari bilan uyg‘un bo‘lishi kerakligini har ma’ruzalarida aytib o‘tadi. Lekin ayni paytda o‘zligiga sodiq qolishi, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz degan da’vat ularning qalbidan doimo aks sado berib turishi zarurligini jon kuydirib gapiradi. Bu jarayonda esa, albatta, tarbiya muhim o‘rin tutadi. Siz, biz va u – hammamiz davlat manfaatlarini o‘z manfaatlarimizdan ustun qo‘yib millat rivoji, ravnaqi haqida jon kuydirsakkina katta bir Elga, Vatanga aylanamiz!

Darhaqiqat, tarbiya Abdulla Avloniy bobomiz aytganlaridek, “yo halokat, yo saodat” sari boshlaydigan yo‘ldir. Bu yo‘lda Alisher Navoiy bobomizning ibratli ishlari biz uchun o‘rnakdir. O‘z hayotini butunlay el-yurt ravnaqiga bag‘ishlagan bobomiz umrining so‘nggi daqiqasigacha o‘zgalar tashvishi bilan yashadi. Tarixchi Xondamirning qayd qilishicha, Alisher Navoiy o‘z mablag‘lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, rabot, masjid, xonaqoh, hammom, ko‘prik, hovuz qurgan yoki ta’mirlattirgan.

Hozirgi kunda yurtimizda ta’lim sohasida boshlanayotgan ulkan o‘zgarishlar va yangilanishlar shamolini hammamiz hayajon bilan kuzatyapmiz. Bu taraddud, hayajon va orzularning-da mohiyati Navoiy hazratlari o‘z asarlarida tarannum etgan bitta ezgu g‘oyada jam bo‘ladi – ODAM EL BILAN TIRIK!

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri

MEHNAT VA TAJRIBA ORTIDAGI SHUHRAT

FAVQULODDA VAZIYATLAR XODIMLARINING O‘ZIGA XOS FAOLIYATI, MEHNATI HAQIDA GAP KETGANDA, KO‘PCHILIKNING KO‘Z OLDIGA YONG‘IN ICHIGA KIRIB BORAYOTGAN, XAVF OSTIDA QOLGAN INSONLARNI QUTQARISHGA SHOSHILAYOTGAN JASUR INSONLAR KELADI. BU KASBNING ORTIDA ODAMLAR HAR DOIM HAM KO‘RAVERMAYDIGAN, AMMO KATTA MAS’ULIYAT TALAB QILADIGAN MUNTAZAM MASHAQQAT, KUNDALIK MEHNAT HAM BOR.





Xavfning oldini olish, xodimlarni tayyorlash, har bir vaziyatga puxta hozirlik ko‘rish va zarur paytda to‘g‘ri qaror qabul qilish bularning barchasi soha vakillaridan bilim, tajriba va fidoyilik talab etadi. Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, polkovnik Shuhratjon Fayzulloyevning ko‘p yillik xizmat faoliyati ham ana shu mas’uliyatli vazifalar bilan bog‘liq.

Shuhratjon Fayzulloyev 1976-yil 21-sentabrda Samarqand viloyatining Samarqand tumanida tug‘ilgan. U yoshligidan favqulodda vaziyatlar sohasiga qiziqqan. Insonlarga yordam berish, og‘ir vaziyatlarda ularga tayanch bo‘lish va el-yurtga xizmat qilish istagi uni shu kasbni tanlashga undagan. Bu qiziqish keyinchalik aniq maqsadga aylanib, uni soha bo‘yicha ta’lim olishga yetakladi. 1994-yilda Toshkent yong‘in xavfsizligi oliy texnik maktabiga o‘qishga kirgan Shuhratjon Fayzulloyev 1999-yilda o‘qishni tamomlab, mutaxassisligi bo‘yicha xizmat faoliyatini boshladi. Shu tariqa, yoshlikdagi orzu amaliy faoliyatga ulanib, uning hayotida yangi bosqich boshlandi.

Dastlabki xizmat yillari kasb sirlarini o‘rganish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va mas’uliyatli vazifalarga shaylanish, ko‘nikish davri bo‘ldi. 1999–2000-yillarda Samarqand viloyati Narpay tumanidagi Ichki ishlar bo‘limi Davlat yong‘in nazorati bo‘linmasida inspektor lavozimida ishladi. 2000–2001-yillarda Samarqand shahar Ichki ishlar bo‘limining yong‘indan saqlash bo‘linmasida xizmat, tayyorgarlik va o‘t o‘chirish bo‘limi katta muhandisi vazifasini bajardi. 2001–2004-yillarda esa Samarqand shahar yong‘indan saqlash bo‘limining yong‘in xavfsizligi yo‘nalishida, jumladan, mustaqil harbiylashtirilgan o‘t o‘chirish qismi yong‘in nazorati guruhida faoliyat yuritdi. Biz hozir raqamlarda aytib o‘tayotgan xizmat yillarining har soniyasi qahramonimizni toblab borgan.

Yong‘in xavfsizligi xodimining vazifasi faqat hodisa sodir bo‘lganda unga javob qaytarishdan iborat emas. Xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan holatlarni oldindan aniqlash, obyektlardagi xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilish va profilaktika tadbirlarini tashkil etish ham ishning muhim qismidir. Shu bois xizmatning dastlabki bosqichlarida orttirilgan tajriba keyingi faoliyat uchun mustahkam zamin yaratdi.

2004–2008-yillarda Shuhratjon Fayzulloyev Samarqand shahar Ichki ishlar bo‘limi yong‘in xavfsizligi bo‘limida, shuningdek yong‘indan muhofaza qiluvchi 3-harbiylashtirilgan yong‘in xavfsizligi qismining boshlig‘i lavozimida xizmat qildi. 2008–2014-yillarda Samarqand shahri yong‘in xavfsizligi tizimida rahbarlik vazifalarini davom ettirdi. 2014–2017-yillarda esa Samarqand shahridagi yong‘in xavfsizligi bo‘linmasida yana mas’ul lavozimlarda faoliyat olib bordi. Bu yillarda nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarini mustahkamladi, balki jamoa bilan ishlash, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish va xizmat vazifalarini samarali tashkil etish borasida ham tajriba to‘pladi.

2017-yildan boshlab uning faoliyati viloyat miqyosidagi boshqaruv ishlari bilan bog‘landi. 2017–2019-yillarda Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Yong‘in xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari - yong‘in nazorati va profilaktikasi bo‘linmasi boshlig‘i lavozimida ishladi. 2019–2020-yillarda esa O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong‘in xavfsizligi bosh boshqarmasi Samarqand viloyati yong‘in xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari – yong‘in nazorati va profilaktikasi bo‘linmasi boshlig‘i vazifasini bajardi. 2020–2023-yillarda Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida mehnat faoliyatini davom ettirdi. 2020-yilda Samarqand shahar favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari – profilaktika va nazorat bo‘linmasi boshlig‘i sifatida ishladi, keyinchalik esa shahar favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i lavozimida xizmat qildi. 2023–2025-yillarda Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida faoliyat yuritdi. 2025-yildan buyon esa boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari – favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha mas’ul rahbar sifatida xizmat qilmoqda.

Lavozim va vazifalarning o‘zgarishi bilan mas’uliyat doirasi ham kengayib bordi. Bugun favqulodda vaziyatlarning oldini olish bilan bir qatorda, sodir bo‘lgan hodisalarga tezkor javob qaytarish, qutqaruv kuchlari va vositalarini to‘g‘ri yo‘naltirish, xodimlarning tayyorgarligini ta’minlash hamda tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Bunday ishlar puxta rejalashtirish va vaziyatni to‘g‘ri baholashni talab qiladi.

Shuhratjon Fayzulloyev xizmat davomida turli yong‘inlar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish hamda aholi xavfsizligini ta’minlash tadbirlarida qatnashib kelmoqda. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, xizmat faoliyati davomida 100 ga yaqin qo‘mondonlik-shtab, 500 dan ortiq maxsus-taktik o‘quv mashqlarida hamda 1200 ga yaqin uchrashuv va profilaktik tadbirlarda ishtirok etgan. Bu raqamlar sohada tayyorgarlik va profilaktika ishlariga qanchalik katta e’tibor qaratilishini ko‘rsatadi.

– Xizmat faoliyatim davomida aholi hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini tezkor va samarali bartaraf etish asosiy maqsadlarimdan bo‘lib kelgan, – deydi polkovnik.

Uning ta’kidlashicha, so‘nggi ikki yil ichida 150 dan ortiq yong‘in va favqulodda vaziyatlarga chiqishlarda, shuningdek, yong‘in o‘chirishga doir amaliy-taktik mashg‘ulotlarda qatnashgan. Har bir chaqiruvning o‘ziga xos jihatlari bo‘ladi. Ba’zan hodisa sodir bo‘lgan joydagi vaziyat tez o‘zgaradi, ba’zan esa bir vaqtning o‘zida bir nechta xizmatning hamjihatlikda harakat



qilishi talab etiladi. Shunday paytlarda kasbiy tayyorgarlik, tajriba va vazminlikning ahamiyati yanada ortadi.

Shuhratjon Fayzulloyev qutqaruvchilik kasbini tanlagan yoshlarda, eng avvalo, insonparvarlik, jasorat, mas’uliyat va fidoyilik bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, haqiqiy qutqaruvchi nafaqat murakkab vaziyatlarda qat’iyat ko‘rsata olishi, balki ehtiyotkorlikni ham unutmasligi kerak. Chunki vazifa faqat yordamga muhtoj insonni qutqarish emas, balki o‘zining va hamkasblarining xavfsizligini ham ta’minlashdan iborat.

– Men uchun qutqaruvchilik oddiygina, oila tebratish uchun pul topishga xizmat qiladigan kasb emas, balki katta mas’uliyat, jasorat va fidoyilik talab qiladigan sharafli burchdir. Vatandoshing bo‘lgan o‘zga bir insonning og‘ir kunida uning yonida bo‘lish, hayotini asrashga hissa qo‘shishdan ortiq baxt yo‘q, – deydi u.

Ko‘p yillik xizmat tajribasi Shuhratjon Fayzulloyevga kelgusidagi ustuvor vazifalarni ham aniq belgilash imkonini bergan. Uning asosiy maqsadlari qatorida qutqaruv bo‘linmalarining kasbiy va amaliy tayyorgarligini yanada oshirish, zamonaviy texnika va innovatsion texnologiyalarni sohaga keng joriy etish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash kabi vazifalar bor. Shuningdek, yosh xodimlarni vatanparvarlik, fidoyilik va kasbga sadoqat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratishni maqsad qilgan.

Shuhratjon Fayzulloyevning xizmat yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, yillar davomida bosib o‘tilgan turli lavozimlar ortida katta tajriba va izchil mehnat turganini ko‘ramiz. Dastlabki inspektorlik faoliyatidan boshlangan yo‘l uni bugun viloyat miqyosidagi mas’uliyatli rahbarlik vazifasiga olib keldi. Bunday xizmatda muvaffaqiyatga erishish uchun kasbni sevishning o‘zi kifoya qilmaydi. Doimiy izlanish, intizom, jamoaga tayana bilish va har bir vazifaga mas’uliyat bilan yondashish ham zarur.

– Eng katta maqsadim – xalqimiz ishonchini oqlash, ona Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilish va taqdiri tasodif tufayli bizning kasbiy layoqatimizga bog‘liq bo‘lib qolgan har bir insonning xavfsiz hayot kechirishiga munosib hissa qo‘shishdir, – deydi polkovnik.

Darhaqiqat, qutqaruvchining mehnati faqat favqulodda vaziyatlarda ko‘rsatgan jasorati bilan o‘lchanmaydi. U xavfning oldini olishga qaratilgan har bir tadbirda, mashg‘ulotlarda, aholi bilan olib borilgan tushuntirish ishlarida va xodimlarning tayyorgarligini oshirishda ham namoyon bo‘ladi. Fojianing o‘zi bilan olishgandan ko‘ra uning oldini olgan foydaliroq va savobliroq. Zero, bu kasbning eng katta mas’uliyati inson hayotini turli xavflardan himoya qilishdir.

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri



KURSANTLAR va talabalar bellashdi

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING “MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI”DA MA’NAVIY-MA’RIFIY TADBIR HAMDA KURSANT VA TALABALAR O‘RTASIDA “ONA TILIM – MILLATIM FAXRI” TANLOVI O‘TKAZILDI.

Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining ijro etilishi bilan boshlandi. Unda Akademiya rahbariyati, professor-o‘qituvchilar, harbiy xizmatchilari, kursantlar va talabalar, Yangihayot tumani 2-sonli umumta’lim maktabi o‘qituvchi va o‘quvchilari hamda OAV vakillari ishtirok etdi. Shuningdek tadbirda taniqli olima, falsafa fanlari doktori, professor, ma’naviyat targ‘ibotchisi, O‘zbekiston xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi Jamila Toshpo‘latovna Shermuhammedova ham ishtirok etib, ona tiliga hurmat, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlodning ma’naviy kamolotida til madaniyatining o‘rni xususida fikr bildirdi.

Tanlov doirasida ishtirokchilar “O‘zbek tili – millat ko‘zgusi” mavzusidagi videoroliklar, bahr-u bayt bellashuvi, “Ona tiliga hurmat – o‘zimizga hurmat” mavzusidagi sahna ko‘rinishlari hamda “Til – millat timsoli” mavzusidagi insholar orqali o‘z bilimlari, ijodkorligi va nutq mahoratini namoyish etdilar. Bellashuvlar belgilangan mezonlar asosida baholanib, yakunda g‘oliblar va ishtirokchilar diplom hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Mazkur tadbir yoshlarning ona tiliga ehtiromini yuksaltirish, savodxonligi va nutq madaniyatini rivojlantirish, shuningdek, milliy qadriyatlar va ma’naviy merosga hurmat tuyg‘usini mustahkamlashga qaratildi.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi Axborot xizmati boshlig‘i, mayor

Xavfsizlik ko‘nikmasi

TOSHKENT VILOYATI FAVQULODDA VAZIYATLAR BOSH BOSHQARMASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VAKILLARI VA BLOGERLAR ISHTIROKIDA MATBUOT ANJUMANI HAMDA PRESS-TUR TASHKIL ETILDI. PRESS-TUR DAVOMIDA MARKAZDA TASHKIL ETILGAN ZAMONAVIY O‘QUV SHAROITLARI, FAVQULODDA VAZIYATLARDA TO‘G‘RI HARAKAT QILISH BO‘YICHA NAZARIY VA AMALIY MASHG‘ULOTLAR, SHUNINGDEK, YOSH AVLODDA XAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN TA’LIM JARAYONLARI NAMOYISH ETILDI.



Matbuot anjumanida dastlab bosh boshqarma boshlig‘i tomonidan “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va aholi xavfsizligini ta’minlash, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik va ustuvor vazifalar” mavzusida ma’ruza qilindi.

Unda viloyatda yong‘inlarning oldini olish, is gazidan zaharlanish va gaz-havo aralashmasining chaqnashi bilan bog‘liq hodisalarning oldini olish, aholi turar joylari hamda ijtimoiy soha obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar va kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida batafsil ma’lumot berildi.

Shundan so‘ng jurnalist va blogerlar Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi tasarrufidagi Nurafshon shahridagi Hayot faoliyati xavfsizligi innovatsion o‘quv markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Jumladan, o‘quvchilarning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini oshirishda VR ko‘zoynaklari, yong‘in xavfsizligini o‘rgatuvchi interaktiv “Olovli” ilovasi, tutun bilan to‘lgan muhitda xavfsiz evakuatsiya qilish mashqlari hamda birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlardan foydalanilayotgani haqida ma’lumot berildi.

Tadbir davomida jurnalistlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar hamda viloyatda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi xavfsizligini ta’minlash va profilaktik ishlar samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdilar. Mazkur matbuot anjumani va press-tur aholining favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish borasidagi bilimlarini oshirish, xavfsizlik qoidalarini keng targ‘ib qilish hamda sohada amalga oshirilayotgan ishlarni jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadbir yakunida jurnalist va blogerlar Favqulodda vaziyatlar tizimida foydalaniladigan maxsus texnika va qutqaruv vositalari bilan ham yaqindan tanishdilar. Ularga texnikalarning imkoniyatlari, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, yong‘inlarni o‘chirish hamda qutqaruv ishlarini amalga oshirishdagi ahamiyati haqida batafsil ma’lumot berildi.

Javlon XOKIMJONOV,
Toshkent viloyati FVBB Axborot xizmati rahbari

HAR BIR YOSH E’TIBORDA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI VA UNING QUYI TUZILMALARI TOMONIDAN TABIIY OFATLARNING OLDINI OLISH, UNING ZARARLI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH, BUNDAY VAZIYATLARDA AHOLINING TO‘G‘RI HARAKAT QILISH KO‘NIKMALARINI O‘ZLASHTIRISHGA QARATILGAN QATOR TADBIRLAR TASHKIL ETILMOQDA. JOYLARDA KO‘PLAB QO‘MONDON-SHTAB HAMDA TAKTIK-MAXSUS O‘QUV MASHQLARI REJAGA ASOSAN MUNTAZAM O‘TKAZIB KELINMOQDA.

Shuningdek, umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan farzandlarimizni favqulodda vaziyatlar tasnifi bilan tanishtirish, ularga qaltis vaziyatlarda himoya usullarini qo‘llash qoidalarini o‘rgatish borasida ham qator xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

“Tayyorgarlikdan o‘tgan inson yarim qutqarilgan insondir” deganlaridek, Fuqaro muhofazasi instituti hamda FVV boshqarmalari qoshidagi Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazlari tomonidan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ular o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli va to‘laqonli o‘tkazish, tinglovchilarni o‘quv-uslubiy adabiyotlar va ko‘rgazmali qurollar bilan ta’minlash, bunday vaziyatlarda aholini to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish barobarida tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish ishlariga ham munosib hissalarini qo‘shishmoqda.

Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi harbiy xizmatchilari va xodimlari ham poytaxt aholisi hamda mehmonlari xavfsizligini ta’minlash, bu borada targ‘ibot-tashviqot va tushuntirish ishlarini olib borish barobarida kimyoviy, yong‘in yoki portlash xavfi mavjud bo‘lgan obyektlarning xavfsiz va barqaror ishlashi uchun qator muhofaza tadbirlarini o‘tkazib kelmoqda. Xususan, Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi tashabbusi bilan “Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish” kuniga bag‘ishlab poytaxtimizning Yunusobod tumanida joylashgan 9-sonli ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktabida hamda 502-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT)da hamda Shayxontohur tumanidagi 180-sonli matematika fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktabi va 484-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT)da o‘quv amaliy seminar va “Fuqaro muhofazasi kuni” tadbirlari o‘tkazildi.

Hafta mobaynida, shuningdek, Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi tomonidan turli sohalarda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarni, ayniqsa, yoshlarni fuqaro muhofazasi, favqulodda vaziyatlar, yong‘in xavfsizligining oldini olish va bunday vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tkazish mashg‘ulotlari ham o‘tkazildi.

Navbatdagi o‘quv mashg‘uloti poytaxtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Toshkent shahar boshqarmasi hamda tumanlari mahalla fuqarolar yig‘inilariga biriktirilgan ijtimoiy xodimlar ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Tinglovchilar ishtirokida fuqaro muhofazasiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati, favqulodda vaziyatlarning tasnifi, ularning oqibatlarini bartaraf etish, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining maqsad va vazifalari hamda jabrlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish mavzulariga oid 30 soatlik dastur asosida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

2026-o‘quv yili davomida ish rejaga asosan, o‘quv mashg‘ulotlardan tashqari, Toshkent shahri tumanlari hududidagi muassasalar, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, yoshlarning ish bilan band bo‘lmagan toifalari bilan mahallalarda mashg‘ulotlar va suhbatlar o‘tkazish ishlari davom etmoqda.

Ubaydullo PAYZULLAYEV,
Toshkent shahar FVBB Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi boshlig‘i, leytenant

CHEMPION KURSANT

VATANPARVARLIK NIMA ASLIDA? INSON O‘ZI TUG‘ILIB O‘SGAN MASKAN – QUTLUG‘ YURTGA MUNOSIB FARZAND BO‘LA OLSAGINA BUNDAY TUYG‘UNI HIS QILGAN SANALADI. TOZA HISLAR, YAXSHI NIYATLAR, YURTGA JONFIDOLIK KABILAR HAMMADA HAM BO‘LAVERMAYDI. QOLAVERSA, XALQ XIZMATIGA KAMARBASTA BO‘LISH JUDA KO‘P VA TINIMSIZ MEHNAT QILISH, IZLANISH, TASHABBUS KO‘RSATISH DEMAKDIR.



Bugungi qahramonimiz O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi kursanti Abdulaziz Abdumo‘minov mana shunday shijoatli yoshlarimizdan. U sportning eng mashaqqatli va shiddatli turlaridan biri bo‘lgan qo‘l kurashi (armrestling) bo‘yicha ulkan zafarlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Abdulaziz suhbatimiz avvalida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mana bu so‘zlarini keltirib o‘tdi: “Men ilmli, irodali va qobiliyatli farzandlarimiz borligidan faxrlanaman. Ularning ota-onalari, ustoz va murabbiylariga alohida rahmatlar aytaman. Bu o‘g‘il-qizlarimiz xalqimizning oltin fondi, Uchinchi Renessans bunyodkorlari, desam, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Yangi O‘zbekistonning kelajagi hisoblangan bunday fidoyi, bilimli, zukko va vatanparvar o‘g‘il-qizlarimiz barchaga namuna bo‘lishi kerak”.

Yosh sportchi har gal yangi maqsadlar sari shaylanganida Davlatimiz rahbarining mazkur so‘zlaridan ilhomlanishini, yosh avlod uchun barcha sharoitlar muhayyo qilib berilayotgan yurtda tug‘ilganidan faxrlanishini ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasida bo‘lg‘usi qutqaruvchi va ofitserlarning har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat, intellektual salohiyatli va yuksak vatanparvar kadrlar bo‘lib yetishishlari uchun barcha zamonaviy shart-sharoitlar yaratilgan. Harbiy ta’lim va jismoniy tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligi turli sharoitlarda xalqimiz xavfsizligini ta’minlaydigan chinakam qahramonlarni tarbiyalashda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugun ana shunday zamonaviy sharoitlardan unumli foydalanib, nafaqat ta’limda, balki sportning eng mashaqqatli va shiddatli turlaridan biri bo‘lgan armrestlingda ulkan zafarlarni qo‘lga kiritib kelayotgan Abdulaziz Abdumo‘minovning hayoti va erishgan yutuqlari ko‘pchilik tengdoshlari uchun haqiqiy ibrat namunasidir.

Qahramonimiz 2005-yil 18-fevralda Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanining “Azimobod” mahallasida dunyoga kelgan. Bolalik yillaridan boshlab mardlik, qat’iyat va intizom tuyg‘ulari uning xarakterida yetakchilik qila boshlagan. Dastlabki bilim va saboqlarni Oltiariq tumanidagi 26-maktabda oldi. Maktab davridayoq tengdoshlaridan o‘zining tirishqoqligi, darslarni a’lo baholarga o‘zlashtirishi hamda sportga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati bilan ajralib turardi. Professional harbiy hayotga va el-yurt tinchligini asrashga bo‘lgan kuchli qiziqish Abdulazizni maktabni tamomlagach, mutlaqo yangi va mas’uliyatli yo‘lga yetakladi. U qat’iy maqsad bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligi Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyiga o‘qishga kirdi. Mazkur nufuzli dargohda kechgan o‘quv yillari uning hayotida tub burilish yasadi. Bu yerda shakllangan metin harbiy intizom, huquqiy bilimlar hamda tajribali ustozlarning o‘gitlari uni kelajakda harbiy sohani o‘z taqdiri deb bilishida hal qiluvchi omil bo‘ldi.

2023-yil litseyni muvaffaqiyatli tamomlagan Abdulaziz o‘z maqsadlari sari yana bir ulkan qadam tashladi – FVV Akademiyasiga hujjat topshirib, murakkab imtihon sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tdi va FVV Akademiyasining kursanti degan sharafli nomga munosib ko‘rildi. Hozirda u akademiyada tahsil olib, o‘z ustida ishlashda davom etmoqda. Abdulaziz bolaligidan sportning yengil atletika va kurash turlari bilan faol shug‘ullanib, o‘z jismoniy chidamliligini oshirib kelgan. Biroq akademiya eshigidan qadam qo‘yganidan so‘ng uning hayotiga eng yuqori darajadagi jismoniy va aqliy tayyorgarlikni talab qiluvchi, dunyoda ommalashib borayotgan armrestling sport turi kirib keldi. Bu sport turi qutqaruvchilar uchun zarur bo‘lgan barcha elementlarni – tezkorlik, kuch, moslashuvchanlik va har qanday sharoitda bardosh bera olish xususiyatlarini o‘zida birlashtirishni talab qiladi. Tizimli mashg‘ulotlar



va professional murabbiylarning ko‘magi bilan u qisqa muddat ichida respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarildi.

Xususan, 2024-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Toshkent shahar kubogi” qo‘l kurashi musobaqasida 1-o‘rinni, 2024-yil Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston kubogi” musobaqasida faxrli 3-o‘rinni, shu yili Toshkent shahar Yashnobod tumani IIO FMB ochiq musobaqasida faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi. 2025-yilda poytaxtimizda o‘tkazilgan “Sabantuy-2025” musobaqasida faxrli 1-o‘rin, “Toshkent shahar kubogi” va “Bear cup” xalqaro ochiq musobaqalarida ketma-ket 2-o‘rin, Navoiy shahrida o‘tkazilgan “O‘zbekiston kubogi” musobaqasida 3-o‘rinni band qildi. Sportchining medal shodasi bu bilan to‘xtab qolmadi. Yutuqlar safi yanada ortib bordi.

Abdulaziz 2026-yil Toshkent shaharida o‘tkazilgan “Toshkent shahar chempionati” musobaqasida faxrli 1-o‘rinni, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahrida bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston championati” musobaqasida faxrli 3-o‘rinni, 2026-yil Toshkent shahrida “Sabantuy-2026” faxrli 1-o‘rin, Namangan viloyati Pop shahrida o‘tkazilgan “Namangan ochiq chempionati” musobaqasida faxrli 1-o‘rinni egallab, ketma-ket ulkan g‘alabalarga erishgan.

– Sport maydonida yoki xalqaro turnirlarda akademiya sharafini himoya qilgan holda muvaffaqiyatga erishishimda ustozlarimning o‘rni beqiyos. Shuningdek, akademiyamizda jismoniy tayyorgarlikka qaratilayotgan e’tibor, zamonaviy sport anjomlari bizga sport mashg‘ulotlarini bajarishimizda yordam beradi. Bu sharoitlar zimmamizga ulkan mas’uliyat yuklaydi va har gal maydonga tushganimda yuksak ishonchni his qilaman, – deydi kursant Abdulaziz Abdumo‘minov.

Mazkur yutuqlar faqatgina bir sportchining shaxsiy muvaffaqiyati emas, balki butun akademiya jamoasining, murabbiylar va rahbariyatning jismoniy tarbiyaga qaratgan alohida e’tibori va qo‘llab-quvvatlashining natijasidir.

Kursant Abdumo‘minov nafaqat sport arenalarida, balki ta’lim jarayonida ham tengdoshlariga o‘rnak bo‘lib kelmoqda. U ustozlaridan olgan har bir saboqni, nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o‘zlashtirib, o‘zining namunali xulq-atvori, qat’iy intizomi, mehnatsevarligi va doimiy ravishda oldinga intilishi bilan ajralib turadi. Kursdoshlari va batalyon xodimlari uni har bir ishga mas’uliyat bilan yondashadigan ishonchli do‘st hamda vatanparvar ofitser sifatida hurmat qilishadi.

FVV tizimini tanlash uning uchun tasodif emas, balki qalbining chuqur da’vati bo‘lgan. Insonlar hayotini favqulodda vaziyatlar, tabiiy va texnogen ofatlardan qutqarishdek eng sharafli va olijanob kasbga sadoqat uning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.

Abdulaziz kelajak haqida gapirar ekan, o‘z oldiga ulkan va aniq maqsadlarni qo‘ygan:

– O‘zbekiston Respublikasi FVV tizimida yuqori malakali, chuqur bilimli va tajribali professional kadr bo‘lib yetishish, xalqimizning xavfsizligi va tinchligini saqlashga munosib hissa qo‘shish hamda Vatanimizga chin dildan va sadoqat bilan xizmat qilish oliy maqsadim. Shuningdek, dunyoning nufuzli va yirik musobaqalaridan biri hisoblangan, eng baquvvat insonlar ishtirok etadigan “Armrestling” xalqaro chempionatida g‘oliblikni qo‘lga kiritish hamda o‘zbek qutqaruvchisining irodasi, kuchi va matonatini butun dunyoga ko‘rsatgan holda O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘ini xalqaro sport arenalarida baland ko‘tarishni niyat qilganman. – deydi bizning sportchi.

Abdulaziz Abdumuminovning fikricha, FVV xodimi hayotida sport shunchaki jismoniy faollik yoki bo‘sh vaqtni o‘tkazish vositasi emas, balki uning bevosita kasbiy majburiyatlari va burchining muhim bo‘g‘inidir:

– Ekstremal sharoitlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, psixologik tushkunlikka tushmaslik, yuqori chidamlilik va har qanday og‘ir vaziyatlarda talafotlarni kamaytirish uchun har bir qutqaruvchi jismonan va ruhan mukammal tayyor bo‘lishi lozim. Sport insonni intizomga, o‘z nafsini jilovlashga va sovuqqonlik bilan ishlashga o‘rgatadi. Shuning uchun ham FVV xodimlari har biri jismoniy tayyorgarlikni o‘z hayotining kundalik qoidasiga aylantirishi zarur, – deydi qahramonimiz.

Akademiya rahbariyati tomonidan kursantlarga yaratilayotgan sharoitlar, o‘quv-mashg‘ulot bazalarining doimiy ravishda yangilanib borishi va jismoniy tarbiyaga qaratilayotgan yuksak e’tibor manashunday mard o‘g‘lonlarning kashf etilishiga zamin yaratmoqda. O‘z oldiga ulkan maqsadlar qo‘ygan holda Vatanimiz xavfsizligi yo‘lida tinmay izlanayotgan va harakat qilayotgan mard va jasur yoshlar bor ekan, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi har doim ishonchli qo‘llarda.

Farhod XOJAYEV,
FVV akademiyasi Axborot xizmati rahbari, mayor

XAVFLI GEOLOGIK JARAYONLAR MONITORINGI

XAVFLI GEOLOGIK JARAYONLAR AHOLI HAYOTI VA SOG‘LIG‘I, INFRATUZILMA OBYEKTLARI HAMDA ATROF-MUHITGA JIDDIY ZARAR YETKAZISHI MUMKIN BO‘LGAN TABIIY OMILLARDAN HISOBLANADI. AYNIQSA, TOG‘LI VA TOG‘OLDI HUDUDLARDA KO‘CHKI, O‘PIRILISH, SEL JARAYONLARI VA TOG‘ JINSLARINING HARAKATLANISHI KATTA XAVF TUG‘DIRADI. BUNDAY JARAYONLARNING FAOLLASHISHI TABIIY OMILLAR BILAN BIR QATORDA, INSONNING XO‘JALIK FAOLIYATI, YERDAN NOTO‘G‘RI FOYDALANISH VA QURILISH ISHLARINING ME’YORLARGA RIOYA QILMASLIGI BILAN HAM BOG‘LIQ BO‘LISHI MUMKIN.



Favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirishning eng muhim usullaridan biri xavfli geologik jarayonlarni muntazam monitoring qilishdir. Buning uchun maxsus kuzatuv postlari, geodezik o‘lchovlar, zamonaviy sensorlar, sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari va geografik axborot tizimlaridan samarali foydalanish mumkin. Olingan ma’lumotlar asosida xavfli hududlarni aniqlash va ularning dinamikasini baholash imkoniyati yaratiladi. Ko‘chki va yer cho‘kishi xavfini kamaytirishda hududlarni geologik va geotexnik jihatdan o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda qurilish ishlarini cheklash, muhandislik inshootlarini barpo etishda geologik sharoitlarni hisobga olish va maxsus himoya choralarini qo‘llash zarur. Shuningdek, xavfli hududlarda suv oqimlarini boshqarish, drenaj tizimlarini yaxshilash, tog‘ yonbag‘irlarini mustahkamlash va eroziya jarayonlariga qarshi choralarni amalga oshirish geologik jarayonlarning faollashishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Geologik favqulodda vaziyatlarning asosiy xususiyati shundaki, ularning shakllanishi ko‘p hollarda ma’lum bir vaqt davomida kechadi va bu holat xavfni oldindan baholash hamda profilaktik choralar ko‘rish imkonini yaratadi. Biroq ayrim holatlarda, masalan, kuchli zilzila yoki yirik o‘pirilishlarda jarayon juda tez rivojlanib, katta talafotlarga olib kelishi mumkin.

Ta’kidlash joiz, yer va tosh ko‘chkilari, o‘pirilishlar, asosan, tog‘li va tog‘oldi hududlarga xos bo‘lib, tabiiy ofatlarning keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Ular qiyaliklarning tikligi oshishi, seysmik hodisalar, meteorologik va gidrologik o‘zgarishlar, shuningdek, turli antropogen jarayonlar hisobiga harakatga tushadi. Yer va tosh ko‘chkilari, o‘pirilishlar aholi turar joylari va xo‘jaliklari, binolar, transport kommunikatsiyalari, hayot maromini ta’minlovchi va muhandislik inshootlari, kanallar, elektr uzatish liniyalari va boshqa muhim obyektlarni vayron qilish hamda ko‘mib yuborishi ehtimoli bilan ham xavfli hisoblanadi.

Tog‘ jinslarining qiya sath bo‘ylab surilishida iqlim sharoiti eng muhim omillaridan biri bo‘lib, u sekin, davomli yog‘ingarchiliklar kuzatiladigan yerlarda keng tarqalgan bo‘ladi. Qiya sathlardagi tog‘ jinsining og‘irligi, mustahkamligi o‘zgarishi bilan ularning muvozanat holati buziladi, past tomonga surilish yuzaga keladi. Shuning uchun surilishlar asosan qorlar erib, yog‘ingarchilik mavsumida mart oylaridan boshlanib, may, iyunda to‘xtaydi. Yog‘ingarchilik, qorlar va muzliklarning erishi natijasida daryo va suv havzalarida suv sathining ko‘tarilishi qirg‘oqlarning yuvilishiga, ya’ni qiya sathlardagi muvozanat holatlarining buzilishiga sabab bo‘ladi.

Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, geologik xavfni baholashda xavf ehtimoli, hududning zaifligi va ta’sir obyektining ahamiyati hisobga olinadi. Geologik riskni baholash quyidagi ifoda orqali amalga oshiriladi:
R = H × V × E bunda: R – risk darajasi; H – xavf ehtimoli; V – zaiflik koeffitsiyenti; E – ta’sir obyektining qiymati. Hozirgi kunda geologik jarayonlarni monitoring qilishda geoaxborot tizimlari (GIS), sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari, dron texnologiyalari, geodezik kuzatuvlar va avtomatlashtirilgan sensor tizimlaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu texnologiyalar xavfli jarayonlarni erta aniqlash va aholini o‘z vaqtida ogohlantirish imkonini beradi.

Xavfli ekzogen geologik jarayonlarning yildan-yilga kengayishi va katta hududlarni qamrab olishi aholi yashash maskanlariga, iqtisodiyot va xo‘jalik obyektlariga, qishloq xo‘jalik ekin yerlariga doimiy ravishda xavf soladi, katta moddiy zarar keltirishi va ayrim hollarda favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Xavfli geologik jarayonlarning shakllanishi va rivojlanish sharoitlarini o‘rganish va ularning monitoringi Davlat geologik monitoring xizmati tomonidan me’yoriy – huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, xavfli geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda geologik monitoringni kuchaytirish, xavfli hududlarni xaritalash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, muhandislik-himoya tadbirlarini amalga oshirish va aholini erta ogohlantirish tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Samarali monitoring va prognozlash tizimining joriy etilishi xavfli jarayonlarni erta aniqlash imkonini berib, inson hayoti va mulkini muhofaza qilish, infratuzilmaga yetkaziladigan zararni kamaytirish hamda favqulodda vaziyatlarning iqtisodiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun xavfli geologik jarayonlarni boshqarishda profilaktika, monitoring va erta ogohlantirish choralarini yagona tizim asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Husan BOBONOV,
FVV Akademiyasi Ofitserlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish fakulteti boshlig‘i

AMALIY HARAKATLAR SINOVDAN O‘TKAZILDI

NAVOIY VILOYATIDAGI 4-GIDROMETALLURGIYA ZAVODI HUDUDIDA MAXSUS YONG‘IN-QUTQARUV TAKTIK MASHQI O‘TKAZILDI. MASHQ “NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ HAMDA “NAVOIYURAN” DK OFV MARKAZI MAS’UL XODIMLARI RAHBARLIGIDA, “JANUBIY” KON BOSHQARMASI VA NSM OFV BO‘LIMI SHAXSIY TARKIBI ISHTIROKIDA TASHKIL ETILDI.



Mashg‘ulot davomida FVB va Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (FVDT) tarkibidagi xizmatlar vakillari shartli favqulodda vaziyatni bartaraf etish bo‘yicha amaliy harakatlarni bajardilar. Jumladan, obyekt hududidagi odamlarni xavfsiz joyga evakuatsiya qilish, shartli jabrlanganlarni qutqarish va ularga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, yong‘in o‘chog‘ini aniqlash hamda uni bartaraf etish, maxsus texnika va kuch-vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha vazifalar bajarildi.

Shuningdek, ishtirokchilarning tezkor qaror qabul qilish, o‘zaro hamkorlikni ta’minlash va belgilangan vazifalarni izchil bajarish qobiliyati sinovdan o‘tkazildi.

Bunday amaliy mashg‘ulotlar yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari va FVDT xizmatlarining favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini oshirish, o‘zaro hamkorligini mustahkamlash, insonlar hayoti va mol-mulkini muhofaza qilish samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Behzod G‘AFUROV,
“NKMK” AJ va “Navoiyuran” DK OFV Markazi guruh boshlig‘i, mayor

Qayum HASANOV,
“Janubiy” kon boshqarmasi va NSM OFV bo‘limi inspektori, leytenant

USKUNALARNI o‘zboshimcha ta’mirlamang!

KUZ-QISH MAVSUMIDA XONADONLARDA GAZ PECHLARI, ELEKTR ISITKICHLARI VA BOSHQA ISITISH MOSLAMALARIDAN FOYDALANISH ORTADI. AFSUSKI, ODDIY E’TIBORSIZLIK YONG‘IN, GAZ-HAVO ARALASHMASINING CHAQNASHI VA IS GAZIDAN ZAHARLANISH KABI OG‘IR OQIBATLARGA OLIB KELISHI MUMKIN.

Shu bois Buxoro viloyatida oktabr oyi “Isitish mavsumini xavfsiz boshlaylik” shiori ostida profilaktik tadbirlar o‘tkazilmoqda. Maqsad – aholi xonadonlarida xavfsizlik qoidalariga rioya etish haqida ogohlantirish va favqulodda vaziyatlarning oldini olish.

Tadbir davomida quyidagi qoidalar yana bir eslatib o‘tilmoqda:

• Qadrli yurtdoshlar, gaz pechlari, mo‘rilar va tutun chiqarish kanallarini mutaxassislarga tekshirtiring. Gaz uskunalarini o‘zboshimchalik bilan ta’mirlamang.

• Gaz plitasidan xonani isitish uchun foydalanmang. Is gazidan zaharlanishning oldini olish uchun shamollatish va havo almashinuvini ta’minlang.

• Elektr isitkichlarini yonuvchan buyumlardan uzoqda saqlang, ustida kiyim quritmang va nosoz elektr simlaridan foydalanmang.

• Pechlarni qarovsiz qoldirmang, mo‘rilarni muntazam tozalating, kulni to‘liq sovigandan keyingina xavfsiz joyga chiqaring.

• Bolalarni isitish moslamalari, gugurtdan uzoq tuting.

Gaz hidi sezilsa, elektr chiroqlarini yoqmang yoki o‘chirmang, ochiq olovdan foydalanmang va xavfsiz joyga chiqing. Yong‘in sodir bo‘lsa, odamlarni xavfsiz joyga olib chiqib, 101 yoki 112 raqamiga qo‘ng‘iroq qiling. Is gazidan zaharlanish alomatlarida jabrlanganlarni toza havoga olib chiqing va 103 raqamiga murojaat qiling.

Aziz yurtdoshlar, xavfsizlik – har birimizning mas’uliyatimiz. Oddiy ehtiyot choralariga amal qilish orqali o‘zimiz va yaqinlarimiz hayotini asrab qolishimiz mumkin.

Mirjon FAYZULLAYEV,
Buxoro viloyati FVB Axborot xizmati boshlig’i, mayor

NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANIDA YONG‘INLARNING OLDINI OLISH, AHOLI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH HAMDA KUZ-QISH MAVSUMINI BETALAFOT O‘TKAZISH MAQSADIDA KENG QAMROVLI PROFILAKTIK TADBIRLAR AMALGA OSHIRILMOQDA.



XAVFSIZLIK xonadondan boshlanadi

Bugungi kunda Navoiy viloyatining Konimex tumanida 36 ming nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. Tumandagi 13 ta mahallaning 3 tasi “qizil”, 4 tasi “sariq” va 6 tasi “yashil” toifaga kiritilgan. Ushbu ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, mahallalarda yong‘in xavfsizligini ta’minlash, mavjud xavf-xatarlarni kamaytirish va aholi o‘rtasida profilaktik ishlarni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Joriy yilning 9 oyi davomida Konimex tumani hududida jami 12 ta yong‘in sodir bo‘lgan. Afsuski, ularning 9 tasi aholi xonadonlarida qayd etilgan. Bu esa uy-joylarda yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, elektr va gaz jihozlaridan to‘g‘ri foydalanish hamda isitish moslamalarining sozligini muntazam nazorat qilish naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, kuz-qish mavsumida havo haroratining pasayishi bilan isitish moslamalaridan foydalanish ortadi. Elektr tarmoqlariga ortiqcha yuklama tushishi, nosoz elektr jihozlari, talab darajasida tozalanmagan mo‘rilar va gaz uskunalaridan noto‘g‘ri foydalanish yong‘in hamda boshqa noxush hodisalarga sabab bo‘lishi mumkin.

Ayni paytda davom etayotgan “Isitish mavsumini xavfsiz boshlaylik” oyligi doirasida Konimex tumanida keng qamrovli profilaktik tadbirlar tashkil etilmoqda. Mas’ul tashkilotlar hamkorligida aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarida yong‘in xavfsizligi holati o‘rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli tushuntirish va tavsiyalar berilmoqda.

Profilaktik tadbirlar davomida fuqarolarga elektr simlari va isitish moslamalarining sozligini tekshirish, gaz jihozlaridan foydalanishda xavfsizlik talablariga rioya etish, mo‘ri va tutun yo‘llarini muntazam tozalash, yonuvchan buyumlarni olov manbalaridan uzoqda saqlash hamda isitish moslamalarini nazoratsiz qoldirmaslik zarurligi tushuntirilmoqda.

Shuningdek, aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilib, yong‘in sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakat qilish, xavfsiz joyga chiqish va tegishli xizmatlarga o‘z vaqtida xabar berish bo‘yicha tavsiyalar berilmoqda.

Behruz MAJIDOV,
Konimex tumani FVB inspektori

ISITISH MOSLAMALARIDAN to‘g‘ri foydalaning!

OB-HAVONING SOVUQLIGI, SHAMOLNING KUCHAYISHI, ISITISH MOSLAMALARIDAN KENG FOYDALANISH HAMDA ELEKTR USKUNALARINING KO‘P QO‘LLANILISHI TUFAYLI YONG‘IN CHIQISH XAVFI OSHADI. SHU BOIS USHBU MAVSUMDA YONG‘IN XAVFSIZLIGI QOIDALARIGA QAT’IY AMAL QILISH HAR BIR FUQARO VA TASHKILOT ZIMMASIDAGI MUHIM VAZIFADIR.

Aholi ko‘p hollarda xonadonlarni isitishda elektr isitgichlar, gaz pechlari, ko‘mir yoki yog‘och yoqiladigan pechlardan foydalanadi. Ushbu jarayonda elektr isitgichlarning ishonchliligini tekshirish, zarur. Isitgichlarni yonilg‘ili materiallar (parcha, mebel, qog‘oz)dan 1 metrdan kam masofaga qo‘ymaslik, pechlarning issiq quvurlari va devor orasidagi masofani me’yorda saqlash muhimdir.

Qishda elektr energiyasidan foydalanish haddan ziyod ko‘paygani uchun qisqa tutashuv hodisalari tez-tez kuzatilishi mumkin. Buning oldini olish uchun:

• Elektr ta’minoti liniyalarining yoki rozetkalarning ortiqcha yuklanishini oldindan tekshirish.

• Rozetkaga bir nechta kuchli uskunani bir vaqtning o‘zida ulamaslik.

• Elektr uskuna ishlayotganda uni nazoratsiz qoldirmaslik.

• Tok o‘tkazuvchi simlarning izolyatsiyasini muntazam ko‘zdan kechirish.

Mavsumga tayyorgarlik ko‘rishda yong‘in xavfsizligiga oid ishlar ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Jumladan:

• Hovlidagi quruq shox-shabbalar, xas-cho‘plarni yig‘ish va belgilangan joyga chiqarish.

• Uydagi yong‘inga qarshi anjomlarni (o‘t o‘chirgich) tayyor holatda saqlash.

Ayniqsa maktab, bog‘cha, tibbiyot muassasalarida yong‘in xavfsizligi choralarini ko‘rish zarur. Shuningdek, isitish kommunikatsiyalarini muhandislik talablariga muvofiq tekshirib borish, qo‘shimcha isitgichlardan noqonuniy foydalanmaslik, yonib ketuvchi moddalar saqlanadigan xonalarda nazoratni kuchaytirish, xodimlar va bolalar uchun evakuatsiya mashqlarini o‘tkazish.

Qolaversa, har bir fuqaro quyidagi tavsiyalarga amal qilishi kerak:

• Uydan chiqishdan oldin elektr va gaz uskunalarini o‘chirib ketish.

• Gazdan foydalanganda hid sezilsa, darhol havo almashtirish va avariya xizmatiga murojaat qilish.

• Bolalarni pech, gaz, isitish moslamalariga yaqinlashtirmaslik.

Yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilish – nafaqat shaxsiy mulkni, balki inson hayotini ham asrab qolishga xizmat qiladi.



Isitish moslamalari, elektr uskunalari va yoqilg‘i bilan bog‘liq ishlar har doim e’tibor va mas’uliyat talab qiladi. Har bir xonadon va tashkilot o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun bu qoidalarga qat’iy amal qilishi zarur.

Anvarjon ORIPOV,
Chust tumani FVB boshlig‘i, podpolkovnik

Ilhomjon ASHURALIYEV,
Chust tumani FVB kichik inspektori, serjant

BIR NECHTA YO‘NALISHDAGI amaliy mashg‘ulotlar

ANDIJON VILOYATI BO‘STON TUMANIDA FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH, ULARNING OQIBATLARINI BARTARAF ETISH HAMDA AHOLINI MUHOFAZA QILISHGA QARATILGAN QO‘MONDONLIK-SHTAB O‘QUV MASHQLARI O‘TKAZILDI. MASHG‘ULOTLAR DAVOMIDA TURLI XUSUSIYATDAGI FAVQULODDA VAZIYATLARDA TEGISHLI XIZMATLAR, TASHKILOTLAR VA TUZILMALARNING HAMKORLIKDAGI HARAKATLARI AMALIY SINOVDAN O‘TKAZILDI.





O‘quv mashqlari doirasida zilzila oqibatida mahalliy aholi yashash hududlariga tabiiy gaz yetkazib beruvchi magistral gaz quvurining shikastlanishi bilan bog‘liq shartli favqulodda vaziyat yuzasidan ham amaliy mashg‘ulot tashkil etildi. Mazkur vaziyatda shikastlangan quvur qismlarini tiklash, gaz sizib chiqishini bartaraf etish, hududda xavfsizlik choralarini ko‘rish hamda jabrlangan mas’ul xodimlarga birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha belgilangan vazifalar bajarildi.

Mashg‘ulotlar jarayonida ishtirokchilarning nazariy bilimlari mustahkamlanib, favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan sharoitda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish, mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish hamda o‘zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish ko‘nikmalari sinovdan o‘tkazildi. Shuningdek, aholi hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan holatlarda zarur xavfsizlik choralarini o‘z vaqtida amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, o‘rmon xo‘jaligi hududlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yong‘inlarni bartaraf etish bo‘yicha ham o‘quv-amaliy mashqlar o‘tkazildi. Shartli yong‘in sodir bo‘lgan hududda vaziyatni tezkor baholash, yong‘inni o‘chirishga qaratilgan harakatlarni tashkil etish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish hamda hodisa joyiga tegishli kuch va vositalarning o‘z vaqtida yetib borishini ta’minlash kabi vazifalar amaliy tarzda bajarildi.

Ushbu mashg‘ulotlar favqulodda vaziyatlarning turli ko‘rinishlarida mas’ul xizmatlarning shayligini baholash, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish va har bir ishtirokchining o‘ziga yuklatilgan vazifani aniq bajarishiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Jarayon davomida xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlik, tezkorlik va muvofiqlashtirilgan harakatlarning samaradorligiga alohida e’tibor berildi.

O‘quv mashqlari yakunida amalga oshirilgan harakatlar tahlil qilinib, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar muhokama etildi. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish, favqulodda vaziyatlarda kuch va vositalarning hamkorlikdagi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarga tayyorgarlik darajasini oshirish yuzasidan tegishli vazifalar belgilab olindi.

Ta’kidlash joizki, bunday qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlari favqulodda vaziyatlarda tezkor va samarali harakat qilish, insonlar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza etish, moddiy talafotlarni imkon qadar kamaytirish hamda aholi xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hayotbek RAHIMOV,
Andijon viloyati FVB Axborot xizmati boshlig‘i

BOJXONA OMBORIDAGI YONG‘IN XAVFSIZLIGI SINOVI



SAMARQAND VILOYATI FAVQULODDA VAZIYATLAR BOSHQARMASI TOMONIDAN VILOYAT HUDUDIDAGI BOJXONA OMBORLARIDAN BIRIDA MAXSUS-TAKTIK O‘QUV MASHQI O‘TKAZILDI.

Ma’lumki, bojxona omborlari turli xil tovar-moddiy boyliklar saqlanadigan, o‘ziga xos xavfsizlik talablariga ega obyektlar hisoblanadi. Bunday joylarda yong‘in sodir bo‘lishi nafaqat mol-mulkka zarar yetkazishi, balki insonlar hayoti va sog‘lig‘iga ham jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli omborlarda yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, mavjud yong‘inga qarshi vositalarning sozligini ta’minlash hamda xodimlarning favqulodda vaziyatlardagi harakatlarini muntazam mashq qildirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus-taktik o‘quv mashqining asosiy maqsadi yong‘in va boshqa favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda xodimlarning to‘g‘ri qaror qabul qilish, vaziyatni tezkor baholash va belgilangan vazifalarni izchil bajarish ko‘nikmalarini mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

Mashq davomida belgilangan vazifalar amaliy jihatdan bajarilib, jalb etilgan kuch va vositalarning hamkorlikdagi harakatlari sinovdan o‘tkazildi. Bunda favqulodda vaziyatga tezkor javob qaytarish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda harakatlarni muvofiqlashtirish kabi jihatlarga e’tibor qaratildi.

Amaliy mashg‘ulotlar xodimlarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, kutilmagan vaziyatlarda sarosimaga tushmasdan, belgilangan tartib asosida harakat qilishga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, katta hajmdagi omborlarda yong‘in xavfining oldini olish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni dastlabki bosqichdayoq bartaraf etish bo‘yicha tayyorgarlik alohida ahamiyatga ega.

O‘quv mashqi doirasida Samarqand viloyati FVB boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, polkovnik Shuhrat Fayzullayev tomonidan bojxona omborining yong‘in xavfsizligi holati ham o‘rganildi.

O‘rganish jarayonida obyekt xavfsizligini ta’minlash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va ehtimoliy yong‘inlarning oldini olishga qaratilgan masalalarga e’tibor qaratildi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, yong‘in xavfsizligi talablariga qat’iy rioya qilish hamda mas’ul xodimlarning bu boradagi javobgarligini oshirish yuzasidan tegishli tavsiya va ko‘rsatmalar berildi.

Shuningdek, bunday obyektlarda yong‘in sodir bo‘lishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan omillarni oldindan aniqlash, xavfsizlik talablariga zid holatlarga yo‘l qo‘ymaslik va mavjud yong‘inga qarshi vositalardan foydalanishga doimo tayyor turish zarur.

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash faqat maxsus xizmatlarning vazifasi bo‘lib qolmasdan, obyekt rahbariyati va har bir xodimning kundalik mas’uliyatidir. Xodimlarning ogohligi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi va favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishi ko‘ngilsiz hodisalarning oldini olishda muhim o‘rin tutadi.

Samarqand viloyatida ishlab chiqarish, savdo, saqlash va boshqa yo‘nalishdagi obyektlarda yong‘in xavfsizligini ta’minlash, mavjud xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik va amaliy tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

O‘tkazilayotgan maxsus-taktik o‘quv mashqlari favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini oshirish, kuch va vositalarning hamkorlikdagi harakatlarini takomillashtirish hamda obyektlarda xavfsizlik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Siroj ZOIROV,
Payariq tumani FVB kichik inspektori, katta serjant

ZO‘RAVONLIK VA RADIKALLASHUVGA QARSHI KURASH – BUGUNNING MUHIM VAZIFASI

BUGUNGI GLOBALLASHUV DAVRIDA INSONIYAT OLDIDA TURGAN ENG DOLZARB VAZIFALARDAN BIRI – BOLALARNI ZO‘RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN HIMOYA QILISH, YOSH AVLOD QALBIDA SOG‘LOM DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH HAMDA ULARNING RADIKAL G‘OYALAR TA’SIRIGA TUSHIB QOLISHINING OLDINI OLISHDIR. ZERO, JAMIYATNING ERTANGI KUNI BUGUN FARZANDLARIMIZGA QANDAY TARBIYA BERAYOTGANIMIZ, ULARNING HUQUQ VA MANFAATLARINI QAY DARAJADA HIMOYA QILAYOTGANIMIZ BILAN CHAMBARCHAS BOG‘LIQ.



Bola himoyaga muhtoj insongina emas, balki mehr, hurmat va xavfsiz muhitda kamol topishga haqli bo‘lgan shaxsdir. Uning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish, jismoniy yoki ruhiy tazyiq o‘tkazish, tahqirlash, qo‘rqitish va befarqlik bilan munosabatda bo‘lish kelajak poydevoriga darz solishi mumkin. Zo‘ravonlikning oqibatlari har doim ham ko‘zga tashlanavermaydi. Ba’zan bolaning sukuti, o‘ziga ishonchi yo‘qolishi, odamlardan uzoqlashishi yoki ichki kechinmalarini hech kimga ayta olmasligida ham namoyon bo‘ladi. Shu bois bolani himoya qilish faqat muayyan idora yoki mutaxassisning emas, balki butun jamiyatning mas’uliyatidir.

Ayni paytda axborot makonining kengayishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan turli mazmundagi materiallar oqimi yoshlar tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Radikallashuv ko‘pincha birdaniga yuz bermaydi. U noto‘g‘ri ma’lumot, yolg‘on va’dalar, nafratni targ‘ib qiluvchi qarashlar va insonning zaif nuqtalaridan foydalanish orqali bosqichma-bosqich kuchayishi mumkin. Ayniqsa, o‘zini jamiyatdan chetda his qilayotgan, muammolariga yechim topa olmayotgan yoki yetarli e’tibor ko‘rmayotgan yoshlar turli zararli ta’sirlarga nisbatan zaif bo‘lib qolishi ehtimoli bor.

Bunday holatlarning oldini olish uchun yoshlarga nisbatan taqiq va ogohlantirish bilan cheklanib qolmasdan, ularda mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy tahlil qilish, yolg‘on xabarlarni haqiqiy ma’lumotlardan farqlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Turli qarashlarga nisbatan bag‘rikenglik, qonunlarga hurmat, inson qadr-qimmatini e’zozlash va muammolarni tinch muloqot orqali hal qilish madaniyati yoshlarni zararli g‘oyalar ta’siridan asraydigan muhim ma’naviy qalqondir.

Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida “Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni” doirasida o‘tkazilgan seminar ham ana shu vazifalarning dolzarbligiga qaratildi. Unda mutaxassislar ishtirokida qonunlar yuzasidan tushuntirishlar berildi. Huquqiy masalalar, jamiyatda radikal g‘oyalar tarqalishiga qarshi kurashish hamda bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish mavzulari muhokama qilindi. Bunday tadbirlar xodimlarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, mas’uliyatini oshirish va profilaktik ishlarning samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa shuki, zo‘ravonlikka ko‘z yumish – muammoning chuqurlashishiga, zararli g‘oyalarga befarq qarash esa yoshlarning noto‘g‘ri yo‘lga kirib qolishiga zamin yaratishi mumkin. Har bir bolaning ovozi eshitiladigan, har bir yosh o‘zini jamiyatning munosib a’zosi deb his qiladigan muhitni yaratish barchamizning burchimizdir.

Furqat HAFIZOV,
Buxoro viloyati FVB bosh yuriskonsulti



FUQAROLARGA HUQUQIY TUSHUNTIRISHLAR BERILDI

QASHQADARYO VILOYATI FAVQULODDA VAZIYATLAR BOSHQARMASI MAS’ULLARI TOMONIDAN KO‘KDALA TUMANI “GULISTON” MAHALLASIDA SAYYOR QABUL O‘TKAZILDI. UNDA BOSHQARMA BOSHLIG‘INING PROFILAKTIKA BO‘YICHA O‘RINBOSARI, PODPOLKOVNIK MASHRAB AHMEDOV ISHTIROK ETDI.

Tadbirning asosiy maqsadi fuqarolarning sohaga oid murojaatlarini o‘rganish bilan bir qatorda ularning huquqiy savodxonligini oshirish, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi faoliyatiga oid qonunchilik talablari bilan tanishtirishdan iborat bo‘ldi.

Qabul davomida fuqarolarga boshqarma faoliyatiga oid jarayonlarni hujjatlashtirish va rasmiylashtirish tartibi, murojaatlarni taqdim etish hamda ko‘rib chiqish qoidalari, shuningdek, Favqulodda vaziyatlar tizimiga ishga qabul qilish shartlari yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi. Jumladan, murojaatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish, zarur hujjatlarni taqdim etish va ularni ko‘rib chiqish jarayonida qonuniy talablarga rioya etishning ahamiyati ta’kidlandi.

Shuningdek, ishga kirish istagidagi fuqarolar – nomzodlarga qo‘yiladigan talablar, ishga qabul qilish jarayonining bosqichlari va tegishli tartib-taomillar haqida ma’lumotlar bayon qilindi. Fuqarolarning murojaatlari tinglanib, ularni qiziqtirgan savollarga javoblar qaytarildi. Ko‘tarilgan masalalar yuzasidan tushuntirish berilib, yechim talab etadigan murojaatlar bo‘yicha mas’ullar zimmasiga tegishli vazifalar belgilandi.

Bunday sayyor qabullar fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirish, ularning murojaatlarini joyida o‘rganish, qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda aholi bilan ochiq va samarali muloqotni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Sohibjon VAYITOV,
Qashqadaryo viloyati FVB Axborot xizmati rahbari

NAMANGAN VILOYATI FAVQULODDA VAZIYATLAR BOSHQARMASIDA SHAXSIY TARKIB ISHTIROKIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY MASHG‘ULOT O‘TKAZILDI.

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI



Mashg‘ulot davomida Ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik va tarbiyaviy ishlar bo‘limi katta ofitseri, harbiy psixolog, leytenant Davronbek Umarov tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat nizomining “Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi munosabatlar” bobining mazmun-mohiyati hamda “Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi ahillik va birdamlik – yutuqlar garovi” mavzusida ma’ruza qilindi.

Unda o‘zaro munosabatlarda hurmat, ahillik va birdamlikni mustahkamlash, xizmat intizomiga qat’iy rioya etish hamda turli huquqbuzarliklarning oldini olish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, mavzu yuzasidan shaxsiy tarkibni qiziqtirgan savollarga mutaxassis tomonidan batafsil javoblar berildi.

O‘tkirbek KOLONOV,
Namangan viloyati FVB ShXB xodimi, podpolkovnik

OLOV QARSHISIDA CHEKINMAGAN IRODA



“SIZ YORITGAN QUTQARUV VOQEALARINING HAMMASI HOYNAHOY TUNDA BO‘LGAN BO‘LSA KERAG-A? TO‘G‘RI, AKSARIYAT YONG‘INLAR TUNDA, HAMMA UXLAB YOTGANDA YUZ BERADI. AMMO FALOKAT DEGANI ASLIDA KUN-SOAT TANLAMAYDI. ODAMNI KUNDUZI HAM G‘AFLAT BOSIB QOLISHI HECH GAP EMAS.”

Qahramonlik tutun ichida yo‘l izlagan nigohda, xavf qarshisida sobit turgan qadamda, begona insonning hayotini o‘z hayotidek asrashga intilgan yurakda namoyon bo‘ladi. Muxbir qiz qutqaruvchi so‘zlarini tinglar ekan, bu galgi suhbatdan kunduz kuni sodir bo‘lgan falokat haqida hikoya eshitishiga amin bo‘ldi. Ammo baribir hayratini bir qadar yashira olmasdi. Axir kuppa-kunduzi atrofingda falokat uchqunlasay-u sezmasang, mumkinmi bu? Bir kishi bilmasa, boshqa bir odam, albatta, payqashi kerakmasmi? Bu savollarga muxbir qiz suhbatdoshidan javob olishiga amin holda qutqaruvchining so‘zlariga diqqatini qadadi.

“Siz menga qutqaruv voqealaridan, eng yomonlaridan aytib bering, dedingiz. Albatta, yoshlik zavqi bilan aytgan bu gapingizni xato deb bo‘lmaydi. Ammo bilingki, falokatning katta-kichigi, yaxshi-yomoni bo‘lmaydi. Har qanday ko‘ngilsiz hodisaning talafoti og‘ir, ularning bari yomon. Hatto odam qutqarilganda ham falokatga bepisand qarab bo‘lmaydi.

Shu yil 4-iyul kuni sodir bo‘lgan voqeani aytib beraman sizga. Ishimni shu qadar yaxshi ko‘ramanki, chiqqan har bir chaqiruvimning asosiy detallari xotiramga mixlanadi. Hatto bunday detallar mingdan oshib ketsa ham unutmayman. O‘sha kungi voqeani ham oradan uch-to‘rt oylar o‘tib ketgan bo‘lsa-da, kechagiday eslayman.

Ishda edim, ya’ni yong‘inda. Boshqa bir hududda sodir bo‘lgan yong‘inni o‘chirib, qutqaruv qismiga qaytamiz deb turgan ham edik, yana bir xavf chaqiruvi kelib tushdi – Chilonzor 24-dahada joylashgan bug‘li hammomda chaqnash. Olovdan chiqib yana olov sari yo‘l oldik. Ichimiz terga botgan, kiyimlar jiqqa ho‘lligigami, yozning jaziramasi u qadar sezilmadi. Soat ham 11, ayni quyosh tikka ko‘tarilgan mahal. Quyosh tandirday qizitsa ham hech kim issiqdan shikoyat qilmasdi. Qutqaruv ekipajida bug‘li hammom ichida qolgan odamlar hayotidan xavotir hukmron edi...

Chaqnash bu – portlashning bir ko‘rinishi. Ham portlaydi, ham yonadi. Bu falokat kishini lahzalarda sarosimaga solib qo‘yadiki, ikkilanib turishga imkon bermaydi hisob. Olov alangasi ko‘tarilgan, tutun atrofni qoplagan joyda har bir soniya hisobli, muhim. Har bir to‘g‘ri qaror esa bir insonning hayotini saqlab qolishi mumkin. Ana shunday tahlikali vaziyatda qutqaruvchining kasbiy mahorati, jasorati va ruhiy matonati namoyon bo‘ladi. U xavfga qarshi borar ekan, ortida qolayotgan insonlarning umidi, yaqinlarining duosi va hayotga bo‘lgan ishonchini ham o‘zi bilan olib kiradi.

O‘sha kuni ham olov domida qolgan o‘nlab insonning hayotini asrab qolishga muvaffaq bo‘ldik. Shukrki, qurbonlar bo‘lmadi. Bu qutqaruv o‘sha o‘nlab insonlar uchun yaqinlari bag‘riga qaytish, yana bir tongni qarshi olish imkoniyati, umrning har lahzasini, yaqinlarni borida qadrlashgan berilgan ishora edi. Bug‘li hammomda quyuq tutun tepada bulutday uyilib qolgani sabab kislorod maskasi bilan ichkarilab, odamlarni ham qo‘shimcha havo niqoblari bilan xavfsiz joyga ko‘chirdik. Yong‘inni esa ikki soat deganda batamom bartaraf etdik...”

Qutqaruvchining jasorati olovning balandligi bilan emas, u asrab qolgan insonlar hayotining qadri bilan o‘lchanadi. Muxbir qiz qutqaruvchining so‘zlaridan buning yana bir karra isbotini ko‘rganday bo‘ldi. Yozning issig‘ida, qora tutun to‘la, nafas olish qiyin bo‘lgan bir binoga “manaman” degan bahodirlar ham kira olmaydi ba’zan. Olov ortda qoladi, uning izlari vaqt o‘tib o‘chishi mumkin. Ammo saqlab qolingan har bir umr, qayta tiklangan har bir umid qutqaruvchining mashaqqatli va sharafli xizmatidan so‘zlovchi unutilmas xotiraga aylanadi...

YUZMA-YUZ OLISHUV

“YUZMA-YUZ OLISHGAN INSONLARNI HECH KUZATGANMISIZ? BIR-BIROVDAN QO‘RQMAY RAQIBINING QARSHISIGA TIKKA BORADI. YONG‘IN BILAN HAM ANA SHUNDAY OLISHISH KERAK. ODAMLARNING OLISHUVIDAN FARQI, CHEKINSANGIZ UYAM CHEKINMAYDI, AKSINCHA, BATTAR BOSTIRIB KELAVERADI. SIZGA BUGUN ANA SHUNDAY OLISHUVLARIMDAN YANA BIRINI AYTIB BERAMAN.”



“O‘, jang ko‘rarkanmiz-da!” – dedi muxbir qiz hazillashib. Ammo ichidan boshqa bir tushkun o‘y o‘tardi. Ba’zan oddiy bir xonadonda boshlangan sokin, odatiy kun kutilmaganda hayot-mamot sinoviga aylanadi. Birgina elektr tutashuvi, bir lahzalik nosozlik – ko‘z ochib yumguncha olov tinchlik hukm surgan maskanni o‘z domiga tortib ketadi. Alanga kuchayadi, tutun quyuqlashadi, xavf esa tobora kengroq hududni qamrab olaveradi. Muxbir qiz suhbatdoshining so‘zlarini qoralashga kirishdi.

“Bu gal ham yong‘in ana shunday kutilmagan hodisadan boshlandi. Elektr simlaridagi tutashuv oqibatida Shayxontohur tumanida joylashgan xonadonlarda alanga ko‘tarilib, qisqa fursat ichida katta yong‘inga aylandi. Endi bu yerda vaqtning har bir soniyasi, qabul qilinadigan har bir qaror qanchalik muhim bo‘lganini tasavvur qiling. Tarang vaziyat. Uchta uy, uchta ro‘zg‘or yonyapti, uchta oila xavf ostida yordam kutyabdi degani bu.

Olovni jilovlash, uning yanada keng tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik va insonlar xavfsizligini ta’minlash zarur edi. Ammo ichkarida odamlar borligi haqida xabar olingach, dastlab ularni qutqarishga kirishdik. Voqea joyiga beshta yong‘in-qutqaruv bo‘linmasi safarbar etildi. Biz uchun qarshimizda turgan vazifa oson emasdi: kuchaygan alangani jilovlash, yong‘in manbasini bartaraf etish va vaziyatni to‘liq nazorat ostiga olish. Ayniqsa, odamlarni tirik holda qutqarish! Har bir harakat aniqlikni, har bir qaror esa kasbiy tajriba va mas’uliyatni talab qilardi. Olov bilan kurashish faqat kuch va texnik imkoniyatlar sinovi emas. Bu, eng avvalo, insonning o‘z burchiga sadoqati, tahlikali vaziyatda ham vazminlikni saqlay bilishi va zimmasidagi mas’uliyatni chuqur his etishidir. Hammamiz ana shu mas’uliyatni yelkalab, alangani jilovlash uchun izchil harakat qildik. Ko‘z oldingizda tasvirlanishi uchun aytaman, birvarakayiga 550-600 kv/m maydon yonardi...

Elektr simlaridagi tutashuvdan boshlangan yong‘in tez orada kuchayib, ketma-ket uchta xonadonga tarqaldi. Alanga tobora avj olar, quyuq tutun atrofni qoplab, vaziyatni yanada murakkablashtirardi. Bunday pallada har bir daqiqa, hatto har bir soniya ham hal qiluvchi ahamiyatga ega edi.

Ikki soat davom etgan mashaqqatli kurashdan so‘ng yong‘in o‘chirildi. Olovning shiddati ortda qoldi, xavf bartaraf etildi. Ammo bu ikki soat qutqaruvchilar uchun oddiy vaqt oralig‘i emas, balki diqqat, matonat va kasbiy mahorat talab etgan jiddiy sinov edi. Bunday voqealarning asl sabog‘i ancha teran: inson hayoti va xavfsizligi hamisha eng oliy qadriyatdir. Bizning vazifamiz esa ana shu qadriyatni har qanday sharoitda himoya qilishdan iborat. Qutqaruvchi kasbining sharafi ham shunda – boshqalar xavotir va qo‘rquv ichida qolgan pallada ular mas’uliyatni zimmasiga olib, ofatga qarshi kurashadilar. Bizning olov bilan yuzma-yuz olishuvimiz mana shunday kechdi...

Uchtepa tumani FVB 10-QQ guruh komandiri, katta serjant
Dilshod BOLEGENOV hikoyalarini jurnalist
Yulduz O‘RMONOVA oqqa ko‘chirdi.

KO‘RINMAS XAVFGA QARSHI ZAMONAVIY QALQON

KUZ-QISH MAVSUMI BOSHLANISHI BILAN XONADONLARDA ISSIQLIK VA QULAYLIK YARATISHGA INTILAMIZ. BIROQ ISITISH MAVSUMIDA ODDIYGINA E’TIBORSIZLIK HAM INSON HAYOTIGA XAVF TUG‘DIRISHI MUMKIN. AYNIQSA, IS GAZI BILAN ZAHARLANISH HOLATLARI JIDDIY TASHVISH UYG‘OTADI. CHUNKI BU GAZ RANGSIZ VA HIDSIZ BO‘LIB, UNI INSON SEZGI ORGANLARI ORQALI ANIQLASH DEYARLI IMKONSIZ. SHU BOIS UNDAN HIMOYALANISHNING ENG SAMARALI YO‘LI – XAVF MANBALARINI OLDINDAN BARTARAF ETISH, XAVFSIZLIK QOIDALARIGA QAT’IY RIOYA QILISH VA ZAMONAVIY HIMOYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHDIR.



IS GAZI NEGA XAVFLI?

Is gazi – uglerod monoksidi (CO) – gaz, ko‘mir, o‘tin va boshqa yoqilg‘ilar to‘liq yonmaganda hosil bo‘lishi mumkin. Nosoz isitish uskunalari, mo‘rining tortish kuchi yetarli emasligi, ventilyatsiya tizimidagi kamchiliklar hamda gaz jihozlaridan noto‘g‘ri foydalanish uning xonada to‘planishiga sabab bo‘ladi.

Is gazining xavfi shundaki, u nafas orqali organizmga kirib, qondagi gemoglobin bilan kislorodga nisbatan ancha kuchli birikadi. Natijada to‘qimalarga kislorod yetkazib berish jarayoni buziladi. Bu, avvalo, miya va yurak faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Zaharlanish bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, holsizlik, ko‘ngil aynishi va hushning buzilishi bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Og‘ir holatlarda esa inson hayotiga jiddiy xavf tug‘iladi.

Eng achinarlisi, bunday hodisalar ko‘pincha odamlar uyquda bo‘lgan paytda yoki xavfni anglab yetishga ulgurmaydigan vaziyatlarda sodir bo‘ladi. Shuning uchun is gazidan himoyalanishda xavfni sezishga umid qilish emas, balki uning oldini olish choralarini ko‘rish muhimdir.

MUHOFAZA ODDIY QOIDALARDAN BOSHLANADI

Is gazidan zaharlanishning oldini olish uchun, avvalo, xonadondagi gaz va isitish uskunalarining sozligiga e’tibor qaratish lozim. Buning uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq:

– Gaz jihozlarini muntazam tekshirtiring. Isitish qozonlari, gaz pechlari va boshqa uskunalarning texnik holatini malakali mutaxassislarga tekshirtirib turing. Nosoz qurilmalardan foydalanmang.

– Mo‘ri va ventilyatsiya tizimlarini nazorat qiling. Ularning toza, ochiq va soz holatda bo‘lishiga ishonch hosil qiling. Mo‘rining tortish kuchini tekshirtirishni unutmang.

– Gaz plitasida xonani isitmang. Gaz plitasi ovqat tayyorlash uchun mo‘ljallangan. Undan xonani isitish maqsadida foydalanish is gazi to‘planishi va kislorod miqdori kamayishi xavfini oshiradi;

– Havo almashinuvini ta’minlang. Xonani shamollatib turing, ventilyatsiya panjaralarini to‘sib qo‘ymang. Havo kirish yo‘llarini berkitish xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin;

– Qo‘lbola isitish moslamalaridan foydalanmang. Uy sharoitida yasalgan yoki belgilangan talablarga javob beradigan qurilmalar katta xavf tug‘diradi;

– Olov va gaz jihozlarini qarovsiz qoldirmang. Ayniqsa, uyquga yotishdan oldin isitish uskunalarining xavfsiz ishlashiga ishonch hosil qiling;

– Shuni ham yodda tutish kerakki, gaz hidi sezilmasligi is gazi yo‘qligini anglatmaydi. Is gazi tabiiy gazdan farqli ravishda hidsiz bo‘ladi. Shu sababli faqat hid bilish sezgisiga tayanish mumkin emas;

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR – QO‘SHIMCHA HIMOYA VOSITASI

Bugungi kunda is gazini erta aniqlashga yordam beradigan maxsus signalizatorlar mavjud. Bunday qurilmalar havodagi uglerod monoksidi miqdori xavfli darajaga yetganda ovozli ogohlantirish beradi. Ayrim zamonaviy modellarda qo‘shimcha xabarnoma yuborish imkoniyati ham mavjud.

Shu bois xonadonda is gazi signalizatorini o‘rnatish foydali profilaktik choralardan biri hisoblanadi. Qurilmani tanlashda uning sertifikatlanganligi, foydalanish yo‘riqnomasi va ishlab chiqaruvchi ko‘rsatmalariga e’tibor berish lozim. Signalizatorni to‘g‘ri joylashtirish, batareyasi va ishlash holatini muntazam tekshirib turish ham muhim.

Biroq bunday qurilma gaz jihozlarini soz saqlash, mo‘ri va ventilyatsiyani tekshirtirish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish o‘rnini bosa olmaydi. U mavjud ehtiyot choralarini to‘ldiruvchi qo‘shimcha himoya vositasidir.

Kelgusida zamonaviy isitish qozonlarida xavfsizlik avtomatikasini keng qo‘llash, nosozlik yuz berganda gaz ta’minotini to‘xtatuvchi tizimlardan foydalanish va turar joylardagi muhandislik kommunikatsiyalarini muntazam nazorat qilish ham xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

ZAHARLANISH ALOMATLARI KUZATILSA, NIMA QILISH KERAK?

Agar xonada is gazidan zaharlanish ehtimoli paydo bo‘lsa, vaqtni boy bermaslik zarur. Bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, ko‘ngil aynishi, holsizlik yoki bir necha kishida bir vaqtda shunday belgilar kuzatilishi xavf haqida ogohlantiruvchi alomatlar bo‘lishi mumkin.

Bunday vaziyatda:

- darhol o‘zingiz va boshqa odamlarni ham xavfsiz joyga – ochiq havoga olib chiqing;
- xavfli xonaga qayta kirmang va boshqalarni ham kiritmang;
- xavfsiz joyga chiqqach, 112 yoki 103 raqamlariga qo‘ng‘iroq qilib, yordam so‘rang;
- jabrlangan odamga tibbiy yordam ko‘rsatilishini ta’minlang. Alomatlar yengil bo‘lsa ham, tibbiy ko‘rikdan o‘tish zarur.

Xonani shamollatish yoki gaz jihozini o‘chirish uchun xavfli hududga qayta kirish tavsiya etilmaydi. Bunday harakat yordam berishga uringan insonning o‘zini ham xavf ostida qoldirishi mumkin.

XAVFSIZLIK – HAR BIRIMIZNING MAS’ULIYATIMIZ

Is gazidan zaharlanishning oldini olish faqat tegishli xizmatlarning vazifasi emas. Bu borada har bir xonadon egasi, oila a’zosi, uy-joydan foydalanuvchi va mas’ul tashkilotning o‘z o‘rni bor. Aholining xabardorligini oshirish, isitish mavsumi oldidan profilaktik tekshiruvlarni tashkil etish, nosoz uskunalarni o‘z vaqtida ta’mirlash va zamonaviy signalizatorlardan foydalanish ko‘plab noxush hodisalarning oldini olishga yordam beradi.

Ayniqsa, bolalar, keksalar va salomatligi sababli xavfli vaziyatdan mustaqil chiqib ketishi qiyin bo‘lgan insonlar yashaydigan xonadonlarda xavfsizlik choralariga alohida e’tibor qaratish lozim. Oila a’zolarining barchasi is gazi xavfi, uning alomatlari va favqulodda vaziyatda qanday harakat qilish kerakligini bilishi kerak.

Unutmang, is gazi ko‘rinmaydi, hidi sezilmaydi, ammo uning oqibatlari nihoyatda og‘ir bo‘lishi mumkin. Shuning uchun xavfsizlik choralarini xavf yuz berganidan keyin emas, undan oldin ko‘rish kerak. Gaz jihozlarini soz saqlang, mo‘ri va ventilyatsiyani muntazam tekshirtiring, xonadoningizda is gazi signalizatoridan foydalaning.

Zero, xavfsizlik kundalik odatga aylanishi lozim!

Mansur NORQULOV,
FVV Akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi o‘qituvchisi

QO‘LLAR NEGA TITRAYDI?

SIZNING HAM QACHONDIR QO‘LINGIZ TITRAGAN. BIR YOKI KO‘P BORA BUNI BOSHINGIZDAN O‘TKAZGANSIZ. AXIR HAYOTDA TURLI HODISALAR, XILMA-XIL MUNOSABATLAR YUZ BERADI. BUGUN QO‘LLARIMIZNING HEGA TITRASHI HAQIDA SO‘ZLASHAMIZ.





Biz jismimizdagi ba’zi o‘zgarishlarga beparvo munosabatda bo‘lamiz. “O‘tib ketadi” qabilida ish tutib belgilarni e’tibordan chetda qoldiramiz yoki kundalik tashvishlar bilan bo‘lib ayrim o‘zgarishlarga umuman ahamiyat bermaymiz. Ularni ko‘pincha charchoq, asabiylik natijasiga, tanamizning zararsiz odatiga yo‘yamiz. Lekin jismimizdagi har bir holatning o‘z sababi mavjud. Bu paytda holatga to‘g‘ri baho berish, ya’ni qaysi biri oddiy, qaysi biri jiddiy ekanligini aniqlash muhim.

Salomatligimiz bilan bog‘liq o‘zgarishlar ba’zida darrov seziladi va belgi bera boshlaydi, ayrimlari esa kundalik hayotimiz orasida asta-asta, xuddi odatga aylanib borayotgandek namoyon bo‘ladi. Qo‘l titrashi ham shunday holatlardan biri. Dastlab unchalik ahamiyat berilmasligi, vaqtinchalik, o‘tib ketadigan bezovtalik sifatida qabul qilinishi mumkin. Biroq bu holatning takrorlanishi, kuchayishi yoki oddiy yumushlarni bajarishga xalaqit berishi uning sababiga jiddiyroq qarashni talab etadi. Chunki qo‘l titrashi turli omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning har birini bir xil baholab bo‘lmaydi.

Umuman olganda, inson qo‘llari mutlaqo qimirlamay turmaydi. Mushaklarning mayda, sezilmas harakatlari sog‘lom odamlarda ham kuzatilishi mumkin. Biroq hayajon, charchoq, uyqusizlik yoki ko‘p miqdorda kofein yo spirtli ichimlik iste’mol qilish bu titroqni yaqqolroq sezdiradi. Masalan, muhim uchrashuv oldidan, imtihon paytida yoki qattiq charchagan vaqtda qo‘llarning titrashi har doim ham kasallik belgisi emas. Ammo bunday holat tez-tez takrorlansa, uning sababini tezlik bilan aniqlash lozim.

Qo‘l titrashining keng tarqalgan sabablaridan biri qondagi glyukoza miqdorining pasayishi. Bunday vaziyatda titroq bilan birga ochlik hissi, sovuq ter bosishi, yurak urishining tezlashishi va bosh aylanishi ham kuzatilishi mumkin. Ayniqsa, qandli diabet bilan yashaydigan va qondagi shakar miqdorini kamaytiruvchi dori vositalarini qabul qiladigan kishilar bu belgilarni e’tiborsiz qoldirmasligi kerak.

Yana bir sabab sifatida qalqonsimon bez faoliyatining ortishini ko‘rsatish mumkin. Qalqonsimon bez gormonlari me’yoridan ortiq ishlab chiqarilganda yurak urishi tezlashishi, ko‘p terlash, issiqqa chidamsizlik, vaznning sababsiz kamayishi va qo‘llarning titrashi kuzatiladi. Bunday belgilar birgalikda namoyon bo‘lsa, shifokor ko‘rigidan o‘tish muhim.

Ba’zan titroq qabul qilinayotgan dorilarning nojo‘ya ta’siri sifatida ham paydo bo‘ladi. Ayrim astma dorilari, ba’zi antidepressantlar va boshqa preparatlar bunga sabab bo‘lishi mumkin. Agar titroq yangi dori boshlaganingizdan yoki uning dozasi o‘zgarganidan keyin paydo bo‘lsa, bu haqda shifokorga xabar bering. Lekin dorini o‘zboshimchalik bilan to‘xtatish yoki dozasini kamaytirish mumkin emas.

> “Qo‘l titrashining yana bir turi tibbiyotda “essensial tremor” deb ataladi. U ko‘pincha qo‘llarni biror ishga solganda, masalan, piyolani ushlash, yozish yoki qoshiqdan foydalanish paytida seziladi. Ba’zi oilalarda bu holat bir necha avlod vakillarida davomli irsiy ko‘rinishda uchrashi mumkin. Titroq asta-sekin kuchayishi va kundalik faoliyatga ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli ham bor.

“Parkinson” kasalligida ham qo‘l titrashi kuzatilishi mumkin. Bunda titroq ko‘pincha qo‘l tinch holatda turganda seziladi. Harakatlarning sekinlashishi, mushaklarning qotishi va yurishdagi o‘zgarishlar ham kuzatilishi mumkin. Shunga qaramay, faqat qo‘l titrashiga qarab “Parkinson” kasalligi haqida xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Tashxis shifokor ko‘rigi va boshqa belgilarni baholash asosida qo‘yiladi.

Qo‘l titray boshlaganda ko‘pchilik buni asabiylikka yo‘yadi yoki uy sharoitida biror vosita bilan bartaraf etishga urinadi. Vaholanki, birinchi navbatda titroq qachon va qanday vaziyatda paydo bo‘layotganiga e’tibor berish kerak. U hayajonlanganda kuchayadimi, ovqatlanish oralig‘i uzayganda paydo bo‘ladimi yoki hech qanday sababsiz ham davom etadimi? Bu savollarga javob topish sababni aniqlashga yordam beradi.

Agar titroq charchoq, uyqusizlik yoki kofein iste’moli bilan bog‘liq bo‘lsa, kundalik odatlarni o‘zgartirish foyda berishi mumkin. Avvalo, uyquni me’yoriga keltirish va yetarlicha dam olishga harakat qilish lozim. Uyqusizlik hamda haddan tashqari charchash qo‘l titrashini kuchaytirishi mumkin.

Qahva, achchiq choy va tarkibida kofein bo‘lgan ichimliklarni ko‘p iste’mol qilish ham ayrim odamlarda titroqni yaqqolroq namoyon etadi. Agar bunday ichimliklardan keyin qo‘llaringiz ko‘proq titrashini sezsangiz, ularning miqdorini kamaytirib ko‘ring.

Ovqatlanish tartibiga rioya qilish ham muhim. Uzoq vaqt ovqatlanmay yurish ayrim kishilarda qondagi glyukoza miqdorining pasayishiga olib kelishi mumkin. Muntazam ovqatlaning. Qandli diabet bilan yashaydigan kishilar esa titroq paydo bo‘lganda, imkon bo‘lsa, qondagi glyukoza miqdorini tekshirishi va shifokor tavsiyasiga amal qilishi kerak.

Hayajon va xavotir sizdagi titroqni kuchaytirayotgan bo‘lsa, tinch muhitda dam olish, sekin va bir maromda nafas olish yoki ochiq havoda yengil sayr qilish yordam berishi mumkin. Biroq bu usullar titroqning barcha sabablarini bartaraf etmaydi. Shuning uchun alomatlar muntazam takrorlansa, ularni faqat stress bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Avvalo, kayfiyatni yaxshilash va mutaxassis maslahatini olish lozim.

Kun davomida yetarli suyuqlik ichish va organizmni suvsizlanishdan asrash ham umumiy holatni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, titroq qachon paydo bo‘layotganini kuzatib boring. Masalan, qahva ichgandan, dori qabul qilgandan yoki uyqusiz tunlardan keyin kuchayadimi? Birov bilan qattiq gaplashgandami? Sizga qattiq muomala qilishganidami? Nohaqlikni ko‘rganingizdami? Bunday ma’lumotlar shifokor uchun xulosa chiqarishda foydali bo‘ladi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, qo‘l titrashini to‘xtatish uchun birov tavsiya qilgan dorilarni, tinchlantiruvchi vositalarni yoki biologik qo‘shimchalarni o‘zboshimchalik bilan qabul qilish xavfli. Davolash usuli titroqning sababiga bog‘liq. Ayrim holatlarda turmush tarzini o‘zgartirish yetarli bo‘lsa, boshqa vaziyatlarda maxsus tekshiruv va tibbiy davolash talab etiladi.

Agar qo‘l titrashi tez-tez takrorlansa, kuchaysa yoki yozish, kiyinish, ovqatlanish kabi kundalik ishlarni bajarishga xalaqit bersa, shifokorga murojaat qiling. Mutaxassis titroq qachon boshlanganini, qaysi vaziyatlarda kuchayishini, qabul qilinayotgan dorilarni va boshqa alomatlarni o‘rganadi. Zaruratga qarab, qon tahlillari va boshqa tekshiruvlar tavsiya etilishi mumkin.

Alohida e’tibor talab qiladigan holat ham bor: qo‘l titrashi to‘satdan boshlanib, yuzning bir tomoni osilishi, qo‘l yoki oyoqda kuchsizlik, nutq yoki muvozanat buzilishi bilan birga kuzatilsa, zudlik bilan tez yordam chaqirish kerak. Bunday belgilar insult, infarkt kabi shoshilinch tibbiy yordam talab qiladigan holatlarning belgisi bo‘lishi mumkin.

Xulosa shuki, qo‘l titrashi har doim ham jiddiy kasallik belgisi emas. Ba’zan uyqusizlik, charchoq yoki doimiy zarar keltirishi mumkin bo‘lgan ichimliklar miqdorining ortib ketgani bilan bog‘liq omillarni bartaraf etishning o‘zi sizga yaxshi yordam beradi. Ammo titroqning sababini bilmasdan turib, uni oddiy asabiylik deb hisoblash ham to‘g‘ri emas. Organizmda takrorlanayotgan o‘zgarishlarga befarq bo‘lmaslik, zarur paytda mutaxassisga murojaat qilish salomatlikni asrashning muhim shartidir.

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri



Tipra-tikan (sinonim)
Soat ... (“Kelin-kuyov”)
Oliy kino mukofoti
Iboli, hayoli
Yo‘ldagi ...-post
Tenni-simiz faxri Oqgul ...
Paxta g‘unchasi
Soch uchun “dazmol”
Gap uqmas, o‘jar
Bahor qushi
A.Navoiy-ning shoh do‘sti Husayn ...
AQSh shimoli-dagi shtat
Tropik chirmo-vuq
“Quvonch-dan ...siga sig‘may ketdi!”
Katta-lashti-ruvchi oynacha
Mahalla raisi
Janubiy Koreya “yuragi”
Aktyor ... Mama-jonov
Qarshi futbol klubi
Chorva yemi
Ulkan sport inshooti
Poytaxti Lima
Suv tortuvchi uskuna
Seriallar vatani
Oylab davom etadigan film
Toshkent-dagi kanal
Izquvar Erkyul ...
Konsert boshlov-chisi O‘tkir ...
G‘arbiy Osiyodagi mamla-kat
Pasport-dagi xorij muhri
Parmuda, varaqi
Xonanda Janob ...
Eshak mingan qiziqchi
Mansub, doir
Mehr-..., qadr-qimmat
“Jon o‘zbegim ...” (Ozoda)
Atrof muhit, borliq
Maxfiy, yashirin
O‘zbekis-ton xalq ...i (unvon)
Nota № 1
“Hech qachon!”
...zokat, ...fisa
Fan bilan mashg‘ul ayol
Xoin, vatan-furush
Yakkaxon ijrochi
Tegishli, taalluqli
Samoviy jism yo‘li
Shohning qaror-gohi
Xontaxta tagidagi isitgich
Chizma-kash, musavvir
O‘tsochar ilon
Satrlar majmui
Ziyo, yorug‘lik
Dov-yurak, botir
Quymoq-bop qozoncha
Royaldan kichik klavishali cholg‘u
Qizlar ismi
“Tarki odat-...i mahol”
Qo‘njli poyabzal
Millat, elat
Singan suyakka qo‘yiladi
“Xuddi o‘zi!”
Eng uzun daryo
“Quvnoq-lar va zukkolar ...i”
Shimoliy Amerika hindu-lari
Jizzax viloyati tumani
Yosh aktyor ... Nasimov
Turkiya markazi
Ko‘chirma hikmat
General “ofisi”
San’at-kor ... Ikromova (Sotti)
Taxta tikani
Yunon tabibi Gippokrat sharqda
Parij aholisi
Priti ... (“Vir va Zara”)
Fazogir Yuriy ...
Erta-pishar uzum navi
“Bur-chini ... etdi!”
Chidam, bardosh
Binoni qizdi-radigan moslama
Nasiba, ...-ro‘z
“Saqich” konfet
Ilmsiz, avom
O‘z dar-vozasiga to‘p urish
Rossiyalik qo‘shiqchi ... Lorak
“Joniga ... kirdi!”
“Tishi boru, og‘zi yo‘q”
Xushbo‘y, muattar hid
Teskari to‘qqiz
Desantchi kiyimi rangi
Afg‘onis-tondagi shahar
Maugli-ning ilon do‘sti
Asqad Muxtor romani
Sal-..., ozgina
Quvvat, mador
Bila turib, jo‘rttaga
Qasam (sinonim)
...qaloq, ...na, ...ndir
Boshoqli g‘alla
Kovboy dala hovlisi
Osmonu ..., samo
Nashatir spirti asosi
Ko‘rsa-tish olmoshi
Tildan tilga o‘girish
“A” ..., “B” undosh tovush

Tuzuvchi: **O.XUDOYQULOV**

MA’LUMKI, OTLAR TO‘G‘RISIDA TURLI AFSONA VA RIVOYATLAR QADIMDAN MAVJUD. SHU BOISDAN OTLARNING YAXSHI XISLATLARI, O‘TA SEZGIR VA HUSHYORLIGI, INSONGA BO‘LGAN SADOQATI VA BOSHQA AJOYIB XUSUSIYATLARI TO‘G‘RISIDA FAQAT ILIQ GAPLAR AYTILADI. SHUNING UCHUN HAM OTLAR BARCHA XALQLAR UCHUN ARDOQLI SANALGAN.

XALOSKOR JONIVORLAR



Uning betakror xosiyatlari xususida taniqli ijodkorlar tomonidan yuzlab asarlar yaratilgani bejiz emas. Oti borning qanoti bor, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Bu jonivorlar ichida Qorabayir zotli ot o‘zining “universal”ligi bilan ajralib turadi. Lekin biz quyida qalamga olayotgan Qorabayirning inson xavfsizligini ta’min etishdagi o‘ziga xos ulushi haqida bir shingil, xolos.

Mashhur shoirimiz Hamid Olimjon asarida “Beqanot uchgan otlar” deya Qorabayirga nisbat bergan bo‘lsa, ne ajab? Taniqli yozuvchi Nusrat Rahmat ham o‘zbeklarning bu arg‘umog‘i haqida qiziqarli maqolalar yozgan: “...Toshkent otchopari. Otlar start maydonida saf tortgan. Bular turkmanlarning Axaltaka, ruslarning risagi Budyonovka va Latviya oti, o‘zbeklarning Qorabayiri... Start to‘pponchasidan o‘q uzildi, qamchilar havoga ko‘tarildi. Qorabayirning egasi dan bexabar qolgan shekilli, otlar ancha nari ketgach, yuganni bo‘shatdi. Qorbayir uchun qamchining keragi yo‘q, shuning o‘zi kifoya edi. O‘zbek arg‘umog‘i ularga yetib oldi va ancha baravar chopishib, hamma otlarni ortda qoldirib ketdi. O‘zbek arg‘umog‘i qarsaklar va olqishlarga ko‘milib ketdi. Hakam natijani e’lon qildi. Qorabayir 1600 metr masofani 1 minut-u 2 sekundda bosib o‘tib, ajoyib rekord ko‘rsatkichga erishgan. Ana shu masofani rus risagi 2 minut-u 26 sekundda, Latviya oti 3 minut-u 2 sekundda bosib o‘tgani ma’lum bo‘ldi”

Qorabayir otlarning dovrug‘i qadimdan olamga mashhur bo‘lgan. Arab otlari o‘zining uchqurligi va ixchamligi bilan boshqa otlardan ajralib turadi. Ular Qorabayirning avlodi hisoblanadi. Chunki arab lashkarboshisi Qutayba Samarqandni bosib olganda juda ko‘plab qorabayir otlarini o‘z vataniga jo‘natgan. Bu otlar Arabistonning iqlim sharoitiga moslashib ketgan va ulardan arab otlari vujudga kelgan. Tarixiy faktlar Chingizxonning ham juda ko‘plab qorabayir otlarni o‘lja olganligidan dalolat beradi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, yer yuzida qorabayirdek epchil ot yo‘q. Qorabayir tez yugurishdan tashqari, yuk tortish va boshqa xo‘jalik yumushlarini bajarishda ham dehqonga beminnat dastyor. Tog‘ va adirlardan, juda qaltis va noqulay yo‘llardan bemalol o‘tib ketaveradi. Boshqa ko‘pgina otlarda bunday xislat yo‘q. Qishning qahraton sovug‘iga ham, yozning jazirama issig‘iga ham ancha bardoshli. Ilgari dehqonlarimiz qishloq xo‘jaligida otlardan juda ko‘p foydalanganlar. Chunki qorabayirlar iqtisodiy jihatdan ham ancha tejamli ekan.

Otlarning ajoyib xislatlari bisyor. Quyidagi hikoyamiz bu jonivorlarning yer silkinishlarini oldindan sezishi va insonlarga qilgan xaloskorlik xizmatlari xususida.

Ashxobodda yuz bergan mudhish 9 ballik yer silkinishidan ikki soat oldin otlar oyoqlari bilan yer tepinib, qattiq kishnaganlari va bog‘langan arqonlarini uzib yuborganliklari haqidagi ma’lumotlarni ko‘pchilik o‘qigan yoki eshitgan bo‘lsa kerak. Aytishlaricha, o‘shanda otlarni egalari tutib, yana joylariga olib kirib, bog‘lab qo‘yishgan. Biroq yer silkinishiga 15 daqiqa qolganda ular yana arqonni uzib, otxona darvozasini sindirib qochib ketganlar. Shundan bir necha daqiqa o‘tib-o‘tmay, yer qattiq silkinib, otxona bosib qolgan.

Otlar yer silkinishi kabi tabiiy ofatlarni oldindan bilishidan tashqari, ayrim ko‘ngilsiz hodisalarga ham ancha sezgir-hushyor ekanliklari ko‘p bor kuzatilgan. Favqulodda vaziyatlar vazirligining qidiruv-qutqaruv tuzilmalaridan birida xizmat qilgan ukam O‘tkirning hikoya qilishicha, Yangiyo‘l tumani hududidan oqib o‘tuvchi Bo‘zsuv kanalida 20 yoshli yigitning cho‘kib ketgani haqida ma’lumot kelib tushgan zahoti qutqaruvchi-g‘avvoslar voqea joyiga yetib kelishgan. Murda qancha masofagacha oqib borganini hech kim aniq aytib berolmaydi. G‘avvoslar topisholmagach, yigitning qarindoshlarining esiga bir voqea tushadi.

O‘tgan yili bir otliq kishi kanalning narigi tomoniga o‘tish uchun ko‘prikka yaqinlashgan. Otning egasi harchand qistasa-da, ot ko‘prikdan o‘tmagan. Ma’lum bo‘lishicha, sal nariroqda cho‘kib ketgan bir odamning jasadi yotgan ekan. Shundan so‘ng ular bir otni topib kelishib, Bo‘zsuv yoqalab yurishgan. Jonivor yo‘ldan ketayotib nimadandir hurkib, kishnab to‘xtagan. Qutqaruvchi-g‘avvoslar shu joy atrofidan haligi yigitning jasadini topdilar.

Xabaringiz bo‘lsa kerak, ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakatimizdan oziq-ovqat va kiyim kechaklardan tashqari, ko‘plab qorabayir va saman otlar frontga jo‘natilgan. Otlarning ko‘pchiligi misli ko‘rilmagan qahramonliklar ko‘rsatgani, xaloskorlik qilgani, natijada bu jonivorlarga ko‘plab haykallar o‘rnatilgani tarixdan ma’lum... Yuqoridagi satrlarni qog‘ozga ko‘chirayotib, nogahon bir voqea esimga tushib ketdi.

Qashqadaryo viloyati Kitob tumanining yirik dehqonchilik xo‘jaliklaridan birida o‘ttiz yildan ziyod rahbarlik qilgan mehnat qahramoni Karomat Rustamova degan ayol o‘tgan. O‘ttizinchi-qirqinchi yillarda transport – ulov taqchil bo‘lgan paytlarda otlar odamlarning joniga oro kirgan. Aytishlaricha, urush yillari ona Vatan uchun jonini ham berishga tayyor turgan qishloq ahli xo‘jaliknikidan tashqari, shaxsiy otlarini-da frontga jo‘natganlar. Shunda Karomat opa ham ko‘p yillar minib yurgan, o‘rganib qolgan otini ko‘zi qiymasa-da, front uchun berib yuboradi. Ot bilan yig‘lab xayrlashadi, jonivor ham buni tushungandek, boshini sarak-sarak qilgan ko‘yi ko‘ziga yosh oladi...

Urush ham kutilgan g‘alaba bilan tugadi. Oradan bir yil o‘tmay, xo‘jalikda “Karomat opaning oti frontdan qaytib kelibdi”, degan ovoza tarqaldi. Nihoyat, horib-charchagan, oldingiga nisbatan ancha ozib-to‘zib ketgan ot egasi bilan uchrashgan va Qorabuloq suvidan qonib-qonib ichgan. Armoni ushalgan bu zabonsiz jonivor ko‘p o‘tmay, shu yerda jon bergan.

Azamat SUYUNOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi



Vaziyat gazetasi
MUASSIS: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir: podpolkovnik **Rustam ALIMOV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta tahririyat kompyuterxonasida sahifalandi.

Gazeta har haftaning payshanba kuni chiqadi. Topshirish vaqti – 15.00. Topshirildi – 15.00.

Bosh muharrir o‘rinbosari: Dilmurod DO‘ST

Navbatchi muharrir: D.Do‘stbekov

Musahhih: B. Yunusova

Sahifalovchilar: M. Hamroyev, B. Salohiddinov

Tahririyat manzili: 100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sh. Rashidov ko‘chasi, 17-uy.

@vaziyat_muhofaza

O‘zbekiston Respulikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2007-yil 3-yanvarda 0096-son bilan ro‘yxatga olingan.

Gazetadan olingan materiallar manbasi ko‘rsatilishi shart.

Gazeta “Sharq” NMAK bosmaxonasida bosildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.
Buyurtma № G-1049.
Bichimi: A3, hajmi: 4 b.t.
Adadi – 20075 nusxa.

ISSN 2091-5292

Gazetani elektron ko‘rinishda o‘qishingiz mumkin:

Indeks: yakka obunachilar va tashkilotlar uchun – 382